

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 16-may
№20 (3134)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



**YURTIM,
SENI FAQAT
BOYLIKLARING-CHUN
SEVGAN FARZAND BO'LSA,
KECHIRMA
ASLO!**

Abdulla ORIPOV

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Vazir va yoshlar uchrashuvi

VATAN HIMOYASI YO'LIDAGI SAMIMIY MULOQOT

YURTIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN HARBIY ISLOHOTLAR, MAMLAKAT MUDOFAA SALOHİYATINI YUKSALTIRISHGA QARATILGAN TIZIMLI CHORA-TADBIRLAR HARBIY XIZMATGA JALB ETILAYOTGAN YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI VA YUKSAK VATANPARVARLIGINI OSHIRISHDA MUHIM AHAMIYAT KASB ETMOQDA.



Shu ma'noda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismda muddatli harbiy xizmatchilar bilan uchrashuv tashkil etildi.

"Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda "Vazir va yoshlar uchrashuvi" formatidagi muloqot orqali askarlarga yurtimizdagi islohotlar mazmun-mohiyati, harbiy xizmatning sharafiga va mas'uliyati kabi tushunchalar yana bir bor chuqur anglatildi.

Uchrashuv davomida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov jismonan baquvvat, aqlan va ma'nan

kamolga yetgan yoshlar yurtimiz taraqqiyotining muhim tayanchi va ishonchli kelajagi ekaniga urg'u berar ekan, harbiy xizmat faqatgina majburiyat emas, balki ulug'vor burch, yuksak sharaf, katta mas'uliyat ekanini alohida ta'kidladi.

Chindan ham Vatan himoyachisi bo'lish har kimga ham nasib etavermaydigan, bag'rikenglik, matonat va sadoqat talab etuvchi yuksak vazifa. Chunki yurt muhofazasida turgan har bir askar bu – Yangi O'zbekistonning mustahkam tayanchi hisoblanadi.

Shundan so'ng yurt himoyasiga bel bog'lagan yigitlar Vatan, xalq, tinchlik kabi muqaddas tushunchalarni madh etuvchi she'rlar, terma va dostonlar ijro etdi.

Yoshlarning bu kabi ijodiy chiqishlari tadbirga yuqori ko'tarinkilik, samimiy kayfiyat baxsh etdi.

O'ziga xos chiqishlardan mamnun bo'lgan mudofaa vaziri bir qator yoshlarni esdalik nishonlar bilan taqdirlar ekan, ijodkorlik va yuksak ma'naviyat harbiy xizmatda ham, hayotda ham ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishini aytib o'tdi.

– Harbiy qismga kelganimga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, Surxon vohasining milliy etnomadaniyatiga bo'lgan qiziqishim kuchaydi. Hozirda do'mbira va chanqovuz chalishni o'rganyapman. Bugun mudofaa vaziri va mehmonlarga do'mbira chertib, terma aytib berdim, – deydi Farg'ona viloyati Dang'ara tumanidan muddatli harbiy xizmatga

kelgan oddiy askar Jaloliddin Mamasoliyev.

Erkin va samimiy ruhda o'tgan uchrashuv harbiy xizmatchilarning ma'naviy ruhini yanada oshirdi, ularda Vatan himoyasiga bo'lgan mas'uliyat, iftixor va sadoqat tuyg'ularini mustahkamladi. Yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga bevosita mudofaa vaziridan javob olgani esa barchaga birdek shijoat bag'ishladi.

Shubhasiz, bunday uchrashuvlar Vatan himoyachilarining ma'naviy-axloqiy kamoloti va yurtga sadoqatini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**

Bugunimiz qahramonlari

ENG

KUCHSIZ ODAM
MAQSADI YO'Q ODAMDIR

III darajali serjant Bunyod Olimjonovich MIRZAYEV

1986-yili Andijon viloyatining Marhamat tumanida tug'ilgan.

Sharqiy harbiy okrug "Sharq" desantchilar tayyorlash bazasida ta'minot guruhi komandiri. Rossiya va Jazoirda o'tkazilgan Xalqaro armiya o'yinlari sovrindori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.

Uylangan. Temurbek, Rustamjon va Amirbek ismli uch o'g'ilning otasi.



MEN tug'ilib o'sgan qishloq O'zbekistonga taniqli bo'lgan aviatsiya klubiga yaqin joylashgan. O'quvchilik yillarimda samolyotlar shundoq ustimizdan uchib o'tar, oppoq parashyutlar bilan sakragan desantchilar, sportchilar ko'kda ko'zlarimizni o'ynatib, yerga ohista qo'nardi. Hayratlanib qarardik. Desantchi bo'lish orzusi shundan boshlangan bo'lsa kerak. Mana shu klubga taxminan boshlang'ich sinflar paytim a'zo bo'lganman. 13 yoshimda birinchi marta sakraganman.

Muddatli harbiy xizmatni 2006-yili havo desantchilari qismida boshladim. Keyin kontrakt bo'yicha xizmat. Bir necha bor xorijda o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda qatnashib, shogirdlarim bilan yutuqlarga erishganmiz. Bolaligimdan hozirgacha bo'lgan sakrashlarimni xomcho't qiladigan bo'lsam, umumiy hisobda 3 333 marta parashyut bilan turli balandliklardan sakragan ekanman.

HAMMA sakrash ham bir xil bo'lmaydi. Ba'zan qiyin holatlarga ham duch kelganman. Sakrash vaqtida ob-havo ayniqsa muhim bo'ladi. Shuningdek, chegarasi cheklangan maydonlarga tushish mumkin, bular shaharning ko'p qavatli binolari yoki daraxtzorlar bo'lishi mumkin. Bu holatlarda yerga talafotsiz qo'nish uchun desantchi ko'p tajribali bo'lishi kerak.

Keyingi yillarda desantchilar faoliyatida ham katta o'zgarishlar bo'lyapti. Zamonaviy parashyut tizimlari, mashqlarning yangi usul va uslublari amaliyotga joriy qilinyapti.

2015-yildan buyon katta yo'riqchi lavozimida xizmat qilaman. Safimizga qo'shilgan yosh harbiy xizmatchilarni sakrashgacha bo'lgan yer tayyorgarligi mashg'ulotlaridan o'tkazib, amaliyotga tayyorlaymiz. Dastur mashg'ulotlari tugaganidan keyin ularga parashyutchi-

desantchi sertifikati beriladi. Men bu nomga 13 yoshimda erishganman. O'shanda vazn yig'ish uchun ancha jon kuydirgandim. Chunki avvalo nomzodning og'irligi me'yorda bo'lishi, belgilangan talabga javob berishi kerak. Vaznim bilan bo'yim to'g'ri kelmagan. Keyin niyatimga yetdim. Parashyut bilan sakrash uchun odamning bo'yi 150 sm, og'irligi 50 kg.dan kam bo'lmasligi kerak.

2018-YILI davlatimiz rahbari harbiy qismimizga tashrif buyurganida desantchi bo'lish, parashyut bilan sakrashga yoshlarning qiziqishi kattaligini bildirdim. Shundan keyin Prezidentimiz ko'rsatmasi bilan Sharqiy harbiy okrug "Sharq" desantchilar tayyorlash bazasida "Sharq burgutlari" jamoasi tuzildi. Hozirgi kunda bu guruhda 11 nafar a'zo bo'lib, ularning 4 nafari qiz, 7 nafari o'g'il bola. Ularning mashg'ulotlardagi harakatlari, intilishlarini kuzatib, bolaligim yodimga tushadi. Bu sohani o'rganish, kasbni egallash uchun faqat qiziqishning o'zi kamlik qiladi, yaxshigina mehnat qilish, ruhan chidamli bo'lish, ter to'kish kerak bo'ladi. O'ziga xos mashaqqatlariga chidamaganlarning o'zi bizni tark etadi. Ruhiy chidamli bolalargina yaxshi o'zlashtirib, topshiriqlarni talab darajasida bajarmoqda.

Esimda, ilgari bitta parashyut uchun ikki kishi navbatga turardik. Bugun har bir bolaga, shug'ullanuvchiga alohida parashyut, sharoitlar ham shunga yarasha, hamma narsa badastir. Qirq besh soatlik tayyorgarlik darslarimiz bor. Jamoamiz a'zolari yosh bo'lishiga qaramay, yaxshi natijalar ko'rsatyapti. Qizlarning natijalari ham yomon emas.

BAZAMIZ faoliyati haqida gapiradigan bo'lsam, safimizga yangi qo'shilganlar uchun 21 soatlik o'quv kursimiz bor. Yakka tartibda suhbat va o'rganishlar, ruhiy tayyorgarlik

va boshqa bir qancha mashg'ulotlar davomida ularni amaliy sakrashga tayyorlaymiz. Shundan keyin sakrash mashqlari bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Avvaliga 600 metr, keyin 800, 1 000, 2 000 metrgacha sakrashlar o'tkaziladi. Ularga bir gapni ko'p takrorlayman. Osmonda o'rdak bo'lib qolmang, deymen. Chunki u ham ko'kda parvoz qiladi, lekin burgutday ucholmaydi, suvda suzadi, lekin baliqday emas, yerda yuradi, lekin odamday emas. Shogirdlarimiz har holda tushunib harakat qilyapti.

HARBIY bo'ldikmi, kiygan libosimizga munosib bo'lishimiz kerak. Men jismoniy qo'rquvlarni his qilmayman. Ammo yelkamizda parashyut va qurol bilan birga mas'uliyat, burch ham bor. Shuni his qilish, mardona ko'tara olish kerak. Ishonchni oqlay olmaslik... bu yomon.

QIZIQ bir holatni sezaman hamisha. Ya'ni yerda yurganda boshqa, parashyut bilan sakraganida boshqa odamman. Bu qiziq holat.

VATANIMIZNING davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkazilgan katta tadbirda 110 kg og'irlikdagi yuk bilan sakraganman. Ammo bu og'irlikdan zarracha cho'chimadim, sakrashimga ham salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Bilasizmi, bu qanday yuk edi? Bu davlatimizning bayrog'i edi. 100 kv metrlik bayroq edi.

HOZIRGI kunda 4 ming metrgacha bo'lgan balandliklardan sakrayapmiz. Unda 150 kg yuk bilan 3-4 km.gacha uchib borish mumkin bo'ladi.

Parashyut tizimlari va turlari yildan yilga yangilanib borar ekan, bizning vazifalarimiz, shu bilan birga mashqlarimiz ham yangilanib, murakkab tus olib boradi. Yangiliklar va yangi usullarni avvalo biz, yo'riqchilar sinovdan o'tkazamiz. Har qanday yangilik har tomonlama tekshiruvlar,

xavfsizlik talablari hisobga olinib, tasdiqdan o'tganidan keyin shaxsiy tarkib amaliyotiga joriy qilinadi.

DESANTCHINING vazifasi faqat sakrashdan iborat emas. Parashyut uni texnika yoki piyoda yetib bora olmaydigan hududga tez va xavfsiz yetkazish vositasi xolos. Desantlashtirishning bir nechta turlari mavjud bo'lib, bu parashyut bilan sakrash, vertolyotda arqon bilan osilib tushish yoki past-balandliklarda yerga sakrash kabilardan iborat. Belgilangan hududga yetib borgan desantchi o'ta muhim jangovar topshiriqlarni bajarishga kirishadi. Bu yog'i alohida mashg'ulotlarni tashkil qiladi.

DUNYODAGI harbiy mojarolar tahlilidan kelib chiqib, biz ham sohani rivojlantirish, tayyorlanayotgan mutaxassislar tajribasini har tomonlama yuksaltirish maqsadida izlanishlar olib bormoqdamiz. Shulardan biri qattiq shamol, yog'ingarchilik yoki noqulay tabiiy sharoitlarda aviatsiya yetib bora olmaydigan hududlarga zarur harbiy yuklarni xavfsiz yetkazish usulidir. Loyihamizni mutasaddilarga taqdim etdik, o'rganishlardan so'ng qabul qilinar, deb o'ylaymiz.

INTILGAN, mehnat qilgan odam kam bo'lmaydi, deganlaridek, 2018-yili davlatimizning yuksak mukofoti – "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Keyin ham bir qancha sovrinlar, esdalik nishonlarga sazovor bo'ldim. Bu menga, safdoshlarimga kuch bo'ldi, maqsadni katta olib, xizmatni davom ettiryapmiz.

Bilasizmi, qurol va texnika qancha kuchli bo'lmasin, askar ruhan kuchli bo'lmasa, Vatani, ortida ota-onasi, elu yurt turganini his qilmasa, bunday askarni yengish oson. Shuning uchun xulosam shunday: eng kuchsiz odam maqsadi yo'q odamdirdir.

Furqat ERGASHEV yozib oldi.

Mardi maydonlar



Harbiy alpinist va alpinist
o'rtasidagi farqni
bilasizmi?

Mamlakatimiz
hududining qariyb
30 foizini tog'lar va
tog'oldi kengliklari
tashkil etadi. Shu bois
qoyalarga chiqish va
tushish, bu yerlarda
harakatlanish uslubiyatini
chuqur o'zlashtirish,
ko'nikmalarni
mustahkamlash
berilgan topshiriqlarni
kutilganidek ado
etish imkonini beradi.
Shundan kelib chiqib,
Ugam-Chotqol tog'
tizmalarida harbiy
xizmatchilar qoyalarda
chiqib-tushish bo'yicha
bilimlarni muntazam
oshirib keladi.

TOG'LAR BILAN



Anglaganingizdek, gap Mudofaa
vazirligi Tog' tayyorgarligi o'quv-
mashqlar markazi xususida ketyapti.
Yaqinda ijodiy jamoamiz bilan yana
ushbu markazda bo'ldik. Ammo bu safar
umuman ko'rmagan hududda, aniqrog'i,
harbiy xizmatchilarning balandligi 150
metr keladigan qoyalarda olib borgan
mashg'ulotlariga guvoh bo'ldik.

– Tog'ga arqon yordamida chiqish
va tushish jarayonlari bir qarashda
oddiy va oson tuyuladi, – deydi mayor
Otajon Otajonov. – Biroq mukammal
qurollangan va maxsus moslamalar
bilan harakatlanish hamda qisqa vaqt
ichida yuqoriga ko'tarilish mushkul
ish hisoblanadi. Chunki kutilmaganda
nazoratingiz ostida bo'lgan vaziyat
o'zgarib, yomg'ir yog'adi yoki qoyaga
qotirilgan maxsus vosita pand beradi.
Albatta, bu haqda o'ylashning o'zi
kishi vujudini titratadi. Biroq biz
tog'ga ko'tarilayotganda hammasini
hisobga olamiz. Biror bir narsa
e'tibordan chetda qolmaydi: qayerda,
qaysi uskunadan foydalanish yaxshi

samara beradi. Albatta, har kuni o'quvlarda bevosita ishtirok etayotgan
harbiy xizmatchilar bu borada yetarli ko'nikmaga ega.

E'tiborlisi, har bir mavzu harbiy xizmatchilar bilan individual hamda
jamoaviy tarzda olib borildi. Bu esa sohani yaxshi bilish, yetarli
ko'nikmaga ega bo'lish imkonini bermog'da.

Ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida alpinistlar
tomonidan baland tog'lar, muz qoyalar va inson oyog'i umuman
yetmagan joylarni zabt etgani haqidagi xabarlarga duch
kelamiz. Albatta, bu hayratimizni ham oshiradi. Lekin bir
savol meni o'ylantiradi: xo'sh, alpinist bilan harbiy alpinist
o'rtasida qanday farq bor? O'zi ularni bir-biri bilan
taqqoslasa bo'ladimi?

– Ta'kidlashim kerakki, tog'da harakatlanish
hammani ham birdek azoblaydi, – deydi katta
yo'riqchi II darajali serjant Abdumuxtor
Abdug'aniyev. – Ammo shu sohada ko'p yillik
tajriba to'plagan va eng muhimi, kerakli
bilimlarni egallaganlarga ko'zlagan marrani
zabt etadi. Bunga shaxsan ko'p bor guvoh
bo'lganman. Men har qaysi qoyaga
ko'tarilishdan oldin u bilan xayolan
so'zlashaman, tinglayman. Va his
etaman. Chunki bu o'ta muhim. Siz
nima qilayotganingizni bilishingiz,
rejalaringsizni tartibga keltirib
olishingiz kerak.





Muallif surata olgan



Muhimi, ro'parangizdagi to'siqqa bardosh berolasizmi? Mana shu savolga javob topsangiz, demak, marra sizniki. Aksincha bo'lsa, unda yarim yo'lda mag'lubiyatni tuyasiz.

Darvoqe, alpinistlar yengil, o'zlariga kerakli anjomlar bilan qoyalarda harakatlanishlari mumkin. Biroq harbiy alpinistlar to'liq jangovar shay holatda, qurol-aslahalar, safar xaltasi va boshqa zarur buyumlar bilan tog'ga ko'tariladi. Bu ikkisini aslida bir-biriga taqqoslab bo'lmaydi nazarimizda. Garchand, qoya odami bo'lsalar-da. Chunki biri xobbi uchun, boshqasi tinchlikka qalqon bo'lish maqsadida tavakkalga qo'l uradi.

– Jismoniy chiniqmagan, yetarlicha ko'nikmaga ega bo'lmagan, organizmini shunga o'rgatmagan va moslashtirmagan, qisqa qilib aytganda, ruhiyati mustahkamlanmagan kishi uchun tepaga qarab harakatlanish juda qiyin, – deydi tog' tayyorgarligi bo'yicha katta yo'riqchi kichik serjant Husniddin Xiziraliyev. –

Chunki bu jarayonlarda kishidagi iroda ham, sabr-u bardosh ham, matonat ham qadam-baqadam sinovdan o'tadi. Va shunga qarab natija qayd etiladi. Shu sabab harbiy xizmatchilar bilan to'rt faslda, qolaversa noqulay ob-havo sharoitida, notanish hududlarda

o'quvlar olib boriladi. Bu orqali yurt o'g'lonlarining o'ziga ishonchi oshirilib, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashga erishiladi.

Aytish kerakki, o'quv dasturiga asosan mashqlar o'ta murakkab. Bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan mavzularda yigitlar tog' sharoitida harakat olib borish taktikalarini sinovdan o'tkazdi. Bu esa ularning chiniqishini, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini yanada mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Bilamizki, tog' sharoitida arqon kishiga dastyor-ko'makchi sanaladi. Galdagi vazifaga ko'ra, yigitlar arqon yordamida cho'qqidan tushish va chiqish, yaradorni evakuatsiya qilish, topografiya, nishon joylashgan hududni aniqlash va taktik harakatlarni olib borish kabi jarayonlarni amalga oshiradi.

– Harbiy xizmatchi uchun kun-u tun yoki jazirama issig'-u qor-yomg'irli ob-havoning ahamiyati yo'q, – deydi kichik serjant Alisher Rajabov. – Berilgan topshiriqni o'z vaqtida aniq va a'lo darajada bajarish uning oldida turgan eng muhim vazifadir. Albatta, bu kabi mashaqqatli mashqlar har tomonlama toblanishimizda muhim hisoblanadi. Chunki bugun olayotgan nazariy va amaliy ko'nikmalarimiz kelgusi faoliyatimizni olib borish davomida asqatadi. Qolaversa, vaziyatga qarab tezkor va aniq qaror qabul qilishimiz kasbiy ko'nikmalarimizni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, doimiy jangovar shayligimizni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Mudofaa vazirligi Tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazi Vatan posbonlarining nafaqat jismoniy, balki safdoshlar bilan hamfikir, hamjihatlikda jang olib borish, sabr-qanoatli, mustahkam irodali bo'lish kabi sifatlarini oshirishlari uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Islahotlar samarasi



BUGUNNING TALABI —

Har bir sohada bo'lgani kabi Vatan mudofaasida ham yaratuvchanlik va yangilanishlarning o'rni muhim. Ayniqsa, yurt himoyachilarining jangovar shayligi zamon talabi bilan hamnafas bo'lmog'i shart. Harbiy sohaning qaysi bir yo'nalishida bo'lmasin, yangilanishlar katta ahamiyat kasb etadi. Polkovnik Akromjon Suvxonov xizmat qilayotgan harbiy qismda ham bu boradagi ishlar o'ziga xos e'tiborda ekaniga guvoh bo'ldik.

MASHG'ULOTLAR ZAHMATLI BO'LSA, SINOVLAR OSON KECHADI

Darhaqiqat, Vatan himoyachilari nazariy mashg'ulotlarni teran o'zlashtirsa, amaliy mashg'ulotlarda faol bo'ladi. Yurt posbonlari tajribali harbiy ustozlar bilan birga barcha qulayliklarga ega mashg'ulot xonalarida yangi bilimlarni egallab kelmoqda. Shu o'rinda harbiy qismda yaratilgan sharoitlarga to'xtalib o'tamiz.

Nazariy mashg'ulotlarni amaliyot bilan uyg'unlikda olib borish muvaffaqiyatlar garovidir. Buning uchun 2022-yili qayta rekonstruksiya dan chiqqan o'quv markazida posbonlarga zarur imkoniyat yaratilgan. Yigitlar ko'p yillik tajribaga ega ustozlar tomonidan singdirilgan nazariy bilimlarni bir vaqtning o'zida mashg'ulot xonasidagi kichik poligonda amaliy ko'nikmalar orqali yuzaga chiqara oladi. Bu dala-o'quv maydonidagi sinov mashg'ulotlarida muhim o'rin tutishi va egallagan harbiy bilimlarini baholash uchun yetarlicha imkoniyat degani.

Shuningdek, azamatlar simulyatsiya va modellash tirish, texnika, aloqa, taktika, otish, topografiya va tibbiy tayyorgarlik kabi bir qator mashg'ulot xonalarida kompyuterlashtirilgan zamonaviy tizim orqali kasbiy bilimlarini oshirib boradi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur harbiy qismda rivojlangan davlatlar armiyalarining taktik harakatlarini chuqur tahlil etgan holda shaxsiy tarkib bilan nazariy va amaliy o'quvlar o'tkaziladi. Yigitlarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirish bosh maqsad etib belgilab olingan. Komandirlar har bir jarayonda bo'ysunuvchilarini o'z sohasining haqiqiy ustasi bo'lish uchun oddiydan murakkab tamoyili asosida o'qitadi va o'rgatadi.



Natijada yurt o'g'lonlari har qanday vaziyatda ham yuklatilgan topshiriqni bajarish ko'nikmasiga ega bo'lmoqda.

Umuman olganda, qo'shinlarimiz tarkibini har tomonlama toblangan, o'ziga ishongan, qo'yilgan vazifalarni tezda bajara olish ko'nikmasiga ega, professional harbiy kadrlar bilan butlashda mazkur harbiy qismning o'rni yuqori.

SPORT – JISMONAN CHINIQQANLIK GAROVI

Harbiy bilim va ko'nikmalarni malakali o'zlashtirishda jismonan



ERTANING TARAQQIYOTI



Sherzod SHARIPOV



o'zlari qiziqqan sport turlari bo'yicha shug'ullanadi, ham vatanparvarlik tuyg'ularini qalblariga jo aylaydi.

MA'NAVIY YETUKLIK – G'ALABA KALITI

Ma'naviyat inson kamolotining beshigi sanaladi. Shu bois harbiy qismda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Yigitlar ta'lim olishlari, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kutubxonadagi kitoblarning o'rni katta bo'lmoqda. O'zbek va jahon adiblarining eng sara asarlarini mutolaa qilib kelayotgan harbiy xizmatchilar ajdodlariga mos avlod bo'lishga harakat qilmoqda.

Harbiy qismning o'quv binosida joylashgan ziyo maskanidagi yetti mingga yaqin turli yo'nalish va mavzudagi tarixiy asar, mutaxassislikka doir qo'llanmalar posbonlarning harbiy va ma'naviy-ma'rifiy bilimlari charxlanishiga xizmat qilib kelayotgani e'tirofga sazovordir.

O'quv binosida tashkil etilgan harbiy qism tarixi muzeyida esa azamatlar qism tashkil etilganidan shu kunga qadar bosib o'tilgan shonli yo'l va faoliyat bilan yaqindan tanishishlari mumkin. Muzeydan joy olgan eksponatlar posbonlar uchun artilleriya tarixi bo'yicha bilim darajasining yanada kengayishiga zamin yaratmoqda.

Umuman olganda, ushbu harbiy qism shaxsiy tarkibi har jabhada faol va tashabbuskordir. Buni ular erishib kelayotgan natijalar misolida ham ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda milliy armiyamiz tom ma'noda imkoniyatlar maydoniga aylangan. Harbiy qism va muassasalarda yaratilgan shart-sharoitlar Vatan posbonlarining qobiliyatlarini rivojlantirish, salohiyatlarini yanada yuksaltirish imkonini bermoqda.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

chiniqqanlikning o'rni ham muhim sanaladi. Shu sabab posbonlar harbiy qismda mavjud sport maydonchalarida tanani chiniqtiradigan turkum mashqlarni olib boradi. Bu orqali ular tezkor va chidamlilik kabi sifatlarni takomillashtiradi. Buning uchun esa ushbu joyda bir paytning o'zida yuzga yaqin harbiy xizmatchi shug'ullanishi uchun sport anjomlari mavjud.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning farzandlari va maktab o'quvchilari uchun ham sport to'garaklari faoliyat olib boradi. O'quvchi-yoshlar ham



O'tgan kunlar

HAYAJON VA JUR'AT

Qish chillasining o'ninchi kuni, quyosh taqvimi bo'yicha 2025-yilning 3-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorni hayajon bilan o'qidim.

Haqrostda, Prezident qarorida qayd etilganidek, "Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr bo'lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi hisoblanadi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxsh etgan fidoyi zotdir".

Qaror mutolaasidan keyingi hayajon arimay turib, hazrati Behbudiyning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishmoqni istadim. Bu yo'lda O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik Naim Karimov nashrga tayyorlagan Mahmudxo'ja Behbudiyning ikki jildidan iborat "Tanlangan asarlar"i, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan

ruhlantiruvchi narsa – umid.

Samarqandda yashayotgan asli turkistonlik Behbudxo'ja o'g'li Mahmudxo'janing ham umidlari ulkan, go'yo ularning ro'yobidan uning qalbi ham, butun koinot ham munavvar edi. U ajdodlari bilan faxrlanar, axir har kimning ham bobokaloni Xoja Ahmad Yassaviyga borib taqalmaydi-ku.


Tomirida ulug'lar qoni jo'sh urganini har on his qilib turgan Mahmudxo'ja dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko'radi. Tinimsiz izlanish va o'rganishlar, yuksak fahm va chuqur bilim mukofoti o'laroq u shariatning yuksak maqomlari – qozi, muftiy darajasigacha ko'tariladi.

1899–1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan muborak Haj safariga otlanadi. Behbudiy safar chog'ida ko'p ijobiy hodisalarga guvoh bo'ladi. Unda yangi maktab haqidagi qarashlar ham aynan ushbu safar chog'i yanada mustahkamlanadi. Hajdan qaytgan Mahmudxo'ja tashabbus va g'ayrat ko'rsatib, 1903-yili Samarqand atrofidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlarida yangi maktablarning tashkil topishiga erishadi.

Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Birin-ketin uning "Risolayi asbobi savod" (1904), "Risolayi jug'rofiyayi



HAZRATI BEHBUDIY KIM



madaniyat xodimi, taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Bir yillik qotillik qissasi", yana Poyon Ravshanov, Halim Sayid, Nusrat Rahmon, ayniqsa Naim Karimov kitoblari, san'atshunos Nigora Umarovanning maktublari, jurnalist Ixtiyor Rahmonning Behbudiy avlodlari bilan suhbatlari bilan tanishdim. O'qigan, ko'rgan va xulosalarimni ushbu maqolada muxtasar bayon etishga ming bir istihola bilan jazm qildim. Shoyad, bu jur'at hosilasi o'laroq qog'ozga tushgan xulosalar orqali yangi avlod vakillari hazrati Behbudiy to'g'risida birlamchi ma'lumot va tushuncha olsalar...

UMID UCHQUNLARI

UMIDLAR INTIHODA O'LADI.

Haqrostda, eng so'nggi damda ham inson yuragiga quvvat berib, eng og'ir daqiqalarda ham uni

umroniy" (1905), "Risolayi jug'rofiyayi Rusiy" (1905), "Kitobat-ul atfol" (1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi kitoblari paydo bo'ladi.

Maktablarda savod chiqarayotgan bolalarni ko'rgach, uning qalbida miltillagan umid uchqunlari alangalanib, tobora yorqinroq porlay boshladi.

"TIYOTR NADIR?"

Mahmudxo'ja 1903–1904-yillarda Moskva va Sankt-Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo'ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so'zlaydi.

Uning nazarida ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi. "Padarkush" dramasi shu tariqa maydonga keldi.

1911-YILDA yozilgan "Padarkush" dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi "Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo'lishining yubiley sanasiga bag'ishlanadi", degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko'rsatadiki, ish oson ko'chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham, uni sahnaga qo'yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: **"Turkistonda bekor odam yo'qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'qki, teatr sahnasiga chiqib,**

"masxarabozlik" qilsa", deb yozgan edi.

"Padarkush" o'zbek dramaturgiyasining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydi. Muallif "Milliy fojia" atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo'n. U jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Orqa-oldini o'ylamagan boyning Toshmurod ismli o'g'li bor. O'g'li o'qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o'g'lini o'qitmaydi, oqibatda u ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg'onib, ularni sezib qoladi. Lekin boyni o'ldirib, pulini olib ketadilar.

Xulosa: jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsa-chi?!

“Padarkush” dastlab 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda sahnaga qo’yildi. “Xalq nihoyat ko’p kelib, bilek yetmagani va joyning yo’qligi uchun uch-to’rt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot. Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (*hozirgi Savdo birjasi binosi*)da o’z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi roli va o’rni haqida nutq so’zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o’zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi.

MATBUOT SARI

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug’ullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so’ng to’rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to’xtagan. O’sha yilning 20-avgustidan u “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan o’zbek tilida bo’lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilardi.

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg’in shug’ullandi. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o’z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo’lga qo’ydi. O’sha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlar chiqa boshlangan edi.

U MILLIY TIL MASALASIGA KATTA E’TIBOR QARATDI.

Birgina uning “Oyina” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat

(*Kuropatkin*) Turkistonni osonlik bilan qo’ldan chiqarmas edi. Fitna va ig’vo tinimsiz davom etardi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz berdi. Amir fevral o’zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e’lon qiladigan bo’ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig’i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish uchun sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig’iga ko’ra, Samarqand ijroiya qo’mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay’at yubordi. Ular orasida Mahmudxo’ja Behbudiy ham bor edi.

7-APREL KUNI islohot e’loni oldindan mo’ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o’rtasida o’tib bo’lmas choh paydo bo’ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo’yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o’lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan “o’z ixtiyorlari ilan” borgan deputatlarga to’nkaydi. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy ushbu syezdda minbarga chiqib, bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda “Buxoro voqealari va daf’i tuhmat” (*“Hurriyat” gazetasi, 1917-yil 1-may*) degan maxsus maqola yozadi.

Bu og’ir kunlardan darak berib, u ma’rifatparvar, millatparvar yurt farzandlari boshiga ko’lanka tashlay boshlagan edi.

ASL QIYOFANING ZOHIR BO’LISHI

1917-yil 26-noyabrda Qo’qonda o’lka musulmonlarining 4-favqulodda

Behbudiyga 700 rubl miqdorida moyana belgilanadi. Bu o’sha davr vazir o’rinbosarining maoshi bilan bir xil bo’lgan. Komissar o’rinbosari sifatida ma’naviy va ma’rifiy masalalarga mas’ul bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiy tashabbusi bilan shu davrda “Ishtirokiyun” (*“Kommunist”*) gazetasi chop etiladi. Nashrning bosh muharriri etib 1906-yili Rossiyadan Turkistonga kelgan va Farg’ona vodiysidagi jadid maktablarida muallimlik qilib kelayotgan Orif Klivliyev tayinlanadi.

1918-YILGA KELIB

Mahmudxo’ja Behbudiyning siyosiy faolligi ancha oshib boradi. Qisqa davr ichida zakiy Behbudiy sovetlar, kommunistlar siyosati mafkurasining noto’g’ri yo’nalishda ekanini anglab yetadi. Hatto uni mahalliy xalqlar uchun zararli, degan xulosaga keladi ham. Natijada 1918-yilning oktabr-noyabr oylarida mazkur tizim tarkibidan chiqishga qaror qiladi. Behbudiy rahbarlik qilgan sektor esa tarqatib yuboriladi.

Umidlari puchga chiqqan Behbudiy 1918-yil fevralida Turkiston muxtoriyatini tor-mor qilish uchun bolsheviklar Qo’qonning eski shahar qismiga yashiringan muxtoriyatchilarni to’pga tutgani va buning oqibatida o’n minglab tinch aholi nobud bo’lganiga guvoh bo’lgan edi. 1919-yil yanvarida bolsheviklarga qarshi isyon ko’targan Osipov yengilgach, askarlari bilan Toshkentdan Samarqandga qochib kelib, eski shahar qismiga yashiringani va ularni mahv etish uchun shahar to’pga tutilishini eshitgan Behbudiyning ko’z o’ngida o’sha eski va achchiq xotiralar qaytadan gavdalanadi.

Bularning barchasi to’planib, millatparvar zotda bolsheviklarning asl qiyofasini afkor ommaga fosh etish istagini qat’iylashtiradi. Ana shu maqsadda u Parijda ish boshlagan davlatlararo sulh konferensiyasi minbaridan foydalanish uchun ikki maslakdoshi va shogirdi bilan safarga otlanadi.

MILLAT UCHUN OG’IR JUDOLIK

Behbudiy ikki nafar hamrohi bilan Buxoro amirligi orqali o’tmoqchi bo’ladi. Lekin uning har bir harakatini kuzatib turgan sho’ro hokimiyatining maxsus xizmati ularni amirlikning chegarasida qo’lga oladi va Shahrissabzdagi qamoqqa tashlaydi.

U qamoqxonada ikki oy saqlanganidan so’ng hamrohlari bilan birga Qarshi shahridagi qamoqxonaga olib kelinadi. Bu yerda Qarshi hokimining ko’rsatmasi bilan Behbudiy va uning hamrohlariga o’zlari uchun qabr kovlatib, jazo dahshatli tarzda amalga oshiriladi. Barchalarining boshlari tanasidan judo etiladi. O’limlaridan avval ibodat uchun ijozat so’ragan mahkumlar namozlarini o’qib tugatmaslaridanoq qatl etiladi...

Uning qatli haqidagi xabar o’sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo’ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O’nlab

marsiyalar yoziladi. “Behbudiyning sag’anasini izladim” deb atalar edi Abdurauf Fitratning bir she’ri. Sadriddin Ayniyda bir emas, uch she’r bor:

– **Sani mundin buyon Turon, ko’rolurmu, ko’rolmasmu? Saning mislingni Turkiston topolurmu topolmasmu?**

1920-yilda Qarshi shahrining nomi Behbudiy deb o’zgartiriladi. Stalin qatag’onlari boshlangach, ya’ni 1936-yilda uning nomi olib tashlanib, yana Qarshi nomi qaytarildi.

JADIDCHILIK HARAKATINING SARVARI

Behbudiyning qatli bilan Turon zaminida jadidchilik harakatiga barham berilgandek edi go’yo. Ammo hazrati Behbudiy boshlab bergan bu ulug’ yo’lda aziz jonlarini garovga qo’yib, minglab jadidlar safni to’ldiraverdi. Ular Behbudiy g’oyalariga xayrixoh va sodiq qolib, Turkiston xalqining avvalo ong-u shuurini, so’ngra vujudini ozod etmoqni lozim topdilar. Bu yo’lda maorif va matbuotga zo’r berdilar.

JADIDCHILIK HARAKATINING SARVARI boshlab bergan yo’l eltuvchi orzular oradan 72 yil o’tib, o’z ro’yobini topdi. Bu o’lka intiqib kutgan va aziz jonlarning qurboniga aylangan Istiqlolga erishdi. Asriy orzular ro’yobini topdi.

Har yili 1-sentabr – Mustaqillik kuni arafasida yuraklarimizda katta iftixor va cho’ng qayg’u bilan Behbudiydek ota-bobolarimizni xotirlaymiz. 31-avgust – Qatag’on qurbonlari xotirasini yod etish kuni qaror topgan asriy haqiqat va qayta tiklangan tarixiy adolat qarshisida ehtirom ko’rsatamiz. Buyuk jadidlarimizning qoni evaziga yongan ezgulikning, ozodlikning nurini so’ndirmaslik, yanada yorug’ alangalatish uchun jon-jahdimiz bilan harakat qilishga ont ichamiz.

Otabek ISROILOV, O’zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi

BO’LGAN?

va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo’lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq “Ikki emas, to’rt til lozim” degan maqola bilan chiqqan edi.

Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri “Himmat va saboti bo’lmagan millatning haqqi hayoti yo’qdur” deb nomlangan. *“Tushundigim zamon ko’nglum yonar, yig’lamoq istarman, ko’zyoshlarim kelmaydur”*, deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Ovro’podan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so’z ochgan edi.

OG’IR KUNLAR KO’LANKASI

Mustamlakachilar “50 yil ilm-ma’rifatdan chetda saqlab kelgan”lari

qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o’tar kechasi Turkiston muxtoriyati e’lon qilinadi. Uning g’oyaviy asoschilaridan biri Behbudiy edi. 1918-yilning fevralida muxtoriyat sho’rolar tomonidan vahshiyona bostiriladi.

Turkiston jadidchilik harakati yetakchisi Mahmudxo’ja Behbudiy o’sha davrda xalq orasida juda katta obro’-e’tibor qozongan edi. Buni yangi hukumat mutasaddilari ham yaxshi bilardi. Shuning uchun Behbudiyga yangi tuzilgan milliy masalalar bo’yicha komissariat organlarida ish taklif qilishadi.

Komissariat tarkibida turli millatlar masalalari bilan shug’ullanuvchi 8 ta alohida bo’lim faoliyat yuritgan. 1918-yil 24-iyundan Behbudiy ushbu komissariatning turkiy millat masalalari bo’limini boshqaradi. Ayonki, ushbu sanadan e’tiboran Behbudiy sovet hukumati tarkibida yuqori martabali mulozim sifatida faoliyat boshlagan.

AMIR NASRULLOXONNING

Jasur va dovyurak kishi bo'lgani bois "Bahodir, Botir" unvonlariga ega bo'lgan, biroq shafqatsizligi uchun xalq orasida "qassob" laqabini olgan Amir Haydarning uchinchi o'g'li Nasrulloxon 1806-yil 1-iyunda tug'ilgan.

Amir Haydar o'g'li Nasrulloni 15 yoshligidan davlat boshqaruviga jalb etgan. U 1821-yildan otasi hamda birodarlari Amir Husayn (1826-yil) va Amir Umar (1826–1827-yillar) hukmronligi davrida Qarshi viloyatida hokimlik qilgan. Amir Nasrullo nihoyatda qat'iyatli shaxs bo'lgani bois otasi uni barcha urushlarga o'zi bilan olib borgan. Ba'zi hollarda uning o'zini yuborgan. Amir Nasrulloxon yoshligidanoq otasining harbiy va davlat boshqaruviga oid sirlaridan xabardor bo'lib, o'rgangan. Amir Haydar boshqa o'g'illariga nisbatan hamisha uni o'ziga yaqin tutgan edi.

1930-yillarda Buxoro amirligida **20 ming** atrofida askar bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, harbiy zaruratga ko'ra, **Buxoro viloyatidan 12 000, Samarqanddan 2 500, Qarshidan 2 500, Maymanadan 1 000, Qorako'ldan 1 000 nafar askar** yetkazib berilgan. Qo'shinning asosiy qismi nayza va qilichlar bilan qurollangan bo'lsa, aksar qismidagina pilta miltiq bo'lgan.

Amir Nasrulloxon hukmronligi davri (1826–1860-yillar)da mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va ma'muriy sohalarida qator islohotlar amalga oshirilgan.

Xorijdan jalb etilgan harbiy mutaxassislar zamonaviy qurol-yarog'lar tayyorlash va foydalanish sirlarini o'rgatgan. Birgina misol, 1834-yili Erondan kelgan Abdusamad Tabriziy askarlarga yevropacha uslubdagi harbiy tartibni o'rgatgan va 1837-yili maxsus to'pchilar qo'shinini tuzgan. Shuningdek, keyinchalik Buxoroda to'p va zambaraklar quyish uchun alohida to'pxona ham qurilgan. Ikki yuz kishidan iborat ingliz harbiy andazasidagi maxsus askariy guruh tuzilgan. Amir Nasrulloning o'ziga xos maxsus gvardiyasi vazifasini o'tagan ushbu guruhga Eroniy qullar ham kiritilgan va unga Abdusamad Tabriziy boshchilik qilgan. Abdusamad Tabriziy hattoki Amir Nasrulloning harbiy maslahatchisi va noibi lavozimida faoliyat ko'rsatgan.

AMIR NASRULLOXON 1837-yilda harbiy sohada islohotlar o'tkazib, har biri **800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar** bulugi va **250 kishilik** to'pchilar guruhini tashkil qilgan. Muntazam piyoda qo'shini sonini **40 ming kishiga**

yetkazgan. **2 000 ga yaqin** otryad nayzali miltiq, qilich, to'pponcha bilan qurollangan. Qo'shin tarkibidagi sarbozlar asosan dehqonlar, hunarmandlar va asirlar orasidan tanlab olingan. Amirlik harbiy qo'shinida qizil kurtka, oq shalvar va qalpoqdan iborat maxsus harbiy kiyim joriy etilgan. Mazkur islohotlardan so'ng Buxoro amirligi qo'shinining jangovar holati, qo'shin tarkibi va uning sifati yaxshilanadi. Mustamlakachi imperiyaning amirlikka bosqini davrida ham qo'shin Amir Nasrulloxon tomonidan olib kelingan qurollar bilan jangga kirganini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, amir Nasrullo mang'it amirlari ichida birinchi bor piyoda sarbozlar tarkibidan to'pchilardan iborat doimiy harbiy bo'linmaga asos solgan. Amirlikda to'plar bundan oldin ham bo'lishiga qaramasdan ulardan alohida guruh tuzilib, O'g'lon va Talipoch darvozalari oldida to'pchilarning kazarmalari barpo etilgani ta'kidlanadi.

Shu tariqa Buxoro atrofida "Sarbozxona" nomi ostida mashhur bo'lgan, **800 uyd**an iborat harbiylarning muntazam yashash manzillari shakllangan. Amir Nasrullo tashkil etgan to'pchilar tarkibida **14 ta nog'orachi, 14 ta naychidan iborat** musiqachilar guruhi mavjud bo'lib, har bir yuzlikda ikkita turk namunasidagi barabanchi, **4 ta surnaychi, 6 ta trubachi** faoliyat ko'rsatgan. Bundan tashqari, rus harbiy asirlaridan tatar Ismoil va rus Trofim murabbiyligida piyoda sarbozlardan tashkil etilgan harbiy musiqachilar guruhi bolobomchilar ham bo'lgan. Xorijdan harbiy mutaxassislar jalb

etilib, zamonaviy qurol-yarog'larni tayyorlash va ulardan foydalanish sirlari o'rganilgan. Masalan, 1834-yili Erondan kelgan Abdusamad Tabriziy yevropacha usuldagi Nizomiy askarlarga tartib bergan va 1837-yili maxsus to'pchilar qo'shinini tuzgan. Buxoroda to'p va zambaraklar quyish uchun alohida to'pxona qurilgan.

AMIR NASRULLOXON uchun eng qiyin va davomli bo'lgan yurish Shahrizabzni egallash yo'lida janglar bo'lgan. Uning boshchiligidagi qo'shin **20 yil davomida** olib borilgan **32 ta harbiy yurishdan** so'ng 1856-yilda Shahrizabzni uzil-kesil egallagan. Shahrizabz markaziy hokimiyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor – Iskandar Vallomaning singlisi Kenagaxsonimga uylangan.

Xulosa o'rinda, Amir Nasrulloxon davrida amalga oshirilgan harbiy islohotlarga amirlik harbiy salohiyatini oshirdi, deb ayt

olamiz. Eron, Rossiya imperiyasi va Turkiya armiyalaridan andaza olish tizimini yo'lga qo'ygan va bu yo'l

da xorijlik mutaxassislarni jalb etgan Amir Nasrulloxon o'z davridagi eng muqobil armiyani yarata oldi. Afsuski, Amir Nasrulloxondan keyingi hukmdorlar harbiy sohaga deyarli e'tibor bermaydi. Mustamlakachilarga qarshi janglardagi mag'lubiyatlar va ko'plab xatoliklarning asosi aslida Amir Nasrulloxondan keyin hukmdorlar davrida armiyaning modernizatsiya qilinmaganida edi.

Zavqibek MAHMUDOV,
Abdulla Avloniy nomidagi
Pedagogik mahorat milliy
instituti dotsenti

“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga

ABDULLA GULSHANIY

GULXANIY EMAS

Kunlarning birida ijodkor tanishim kuyinib gapirdi:
– Yaqinda tumanda o'tkazilgan adabiyot fani o'qituvchilarining yig'ilishida qatnashishga to'g'ri keldi. Men o'qituvchilardan “Abdulla Gulshaniy haqida ham o'quvchilarga ma'lumotlar berasizlarmi?” – deb so'radim. Ular ajablanib bir-birlariga qarab oldi. Keyin biri menga qarab dedi:
– Anovi “Zarbulmasal”ni yozganni aytyapsizmi?
Men indamadim. Ammo ich-ichimdan bir nima “chirt” uzilgandek bo'ldi...
Shu sabab bo'ldi-yu jadidlarning hammaslagi Abdulla Gulshaniy haqida yozishga qaror qildim.

G'azalxon shoir, tarjimon, aruz va muammo ilmining bilimdoni Abdulla Gulshaniy 1898-yil mart oyida Shahrisabzning Zingaron mahallasida, kosib Abdurahmon Fozil o'g'li oilasida tug'ilgan. Olti yoshdan tog'asi mulla Meyli maktabida o'qib, 13 yoshida Qur'oni karimni yod oladi. Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qiydi. U Navoiy, Dehlaviy, Fuzuliy, Jomiy, Firdavsiy, Bobur asarlarini o'rganish bilan birga, Gulshaniy taxallusi bilan g'azallar yozib, tez orada yaxshigina shoir bo'lib taniladi. Abdulla Gulshaniyning “Tuhfat ul-ahbob” (*Do'stlar sovg'asi*) nomli devoni mavjud.

Yosh Abdulla Gulshaniy Buxoroda o'qigan davrida Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda bilan tanishib, jadidlar harakatining faol a'zosiga aylanadi. Taraqqiyparvar yoshlarni yangi g'oyalar bilan tanishtiradi. Ularning bosh maqsadi amirlik tuzumini isloh qilish, mamlakatni oq podsho qaramligidan qutqarib, mustaqil davlatga aylantirish, yoshlarni xorijga o'qishga yuborib, milliy yetuk mutaxassislarga ega bo'lish, xotin-qizlarni o'qitish, usuli savtiya, usuli jadidiya maktablarining sonini ko'paytirish, tijorat ishlarini rivojlantirib, chet el sarmoyasini kiritish kabi ishlarni amalga oshirish edi.

ABDULLA GULSHANIY madrasa tahsilidan ta'tilga chiqib, Shahrisabzga kelgan paytida do'stlari shoir Fayzulla Ravnaqiy, mulla Shoymardonqul soatsoz, Qori Tursun Abdullayev, Abdulhamid hoji Abdulhakimov, Ahmadjon Aminjonov, Shodibek Xo'jaqulov, Sobir Maxsumov, Mirza Karomatilla Tursunov, Qori Oston Hazratqulov, Qori Faxriddin Nizomov, kitoblik Egamberdi Gusband kabi yangilik tarafdorlaridan iborat guruh tuzishga ham erishadi. Mulla Islomqul To'qsabo bu guruhning boshlig'i edi. Ular Fitrat, Behbudiy, Abdulla Qodiriy bilan doimiy aloqada edilar. Urgutda muallimlik qilayotgan buxorolik Rajab Sulaymoniy Turkistonda chiqadigan jadidlarning “Qutulish” gazetasini Shahrisabzga yuborib turar, Gulshaniy esa Shahrisabzdagi guruhning ahvoli haqida Buxoroga xabar berib turadi.

Amirlik ayg'oqchilari 1919-yilning bahorida uni otasining uyida qo'lga olib, Shahrisabz begi Said Akromxon to'raning zindoniga tashlaydi. **Bunga sabab u amirga atab quyidagi she'rni bitgan edi.**

*Siz birla bizning zikrimiz – siz bir taraf, biz bir taraf,
Bir-biriga ziddir fikrimiz – siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Siz yangilikka qarshisiz, biz eskilikka qarshimiz,
Shul ikki maqsad ustida siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Har eskilik botil erur, tushunmagan johil erur,
Har yangilik qobil erur, siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Zindon bilan qo'rqitmangiz, urmoq bilan hurkitmangiz,
So'zga kirar deb kutmangiz, siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Istibdodga yetdi futur, xalq isyoni Vatanda zo'r,
Endi bo'lmas sizga huzur, siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Haddin oshibdir dard-u g'am, har bir ko'ngilda ming alam,
Tokaygacha bundog' sitam, siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Bizlarga maqsad e'tiqod, mehnat eli bo'lsin ozod,
Maktabimiz bo'lsin obod, siz bir taraf, biz bir taraf.*

*Gulshan aytur sizga bul so'z, buni bilgay el-u ramz,
Sizni yenggay ohi dil so'z, siz bir taraf, biz bir taraf.*

ABDULLA GULSHANIY 1917-yilning qovun pishig'ida Shahrisabzdagi o'zi tahsil olgan “Maliki ashtar” madrasasining mudarrisi bo'lgan mulla Xudoyqulning qizi Hikoyatxonga uylanadi. Hikoyatxon ta'limni dastlab uyida otasidan, so'ng mahallasidagi Risolatbonu otining maktabida oladi. Uning she'riyatga mayli bor edi. Hatto, g'azallarini to'plab devon tuzgan degan taxminlar bor.

Abdulla zindondaligida qora niyatli kimsalar Hikoyatxonga “Abdullani zindonda osib o'ldirdi”, degan xabar beradi. Bu xabardan qattiq qayg'uga botgan 19 yoshli suluv kelinchak zahar ichib, joniga qasd qiladi.

Abdullani besh oydan so'ng otasi dala hovlisini sotib, yetmaganiga qarindoshlaridan qarz olib, kafillik evaziga zindondan olib chiqadi. Sevgilisidan judo bo'lgan Abdulla Gulshaniy Hikoyatxonga bag'ishlab ko'plab o'tli g'azallar bitadi.

Hokimiyat sho'rolar qo'lga o'tgach, u Shahrisabzdagi hukumat idorasida, keyin Qarshi, Samarqand, Namangan, Buxoro viloyatlarining chekka tumanlarida turli lavozimlarda ishlaydi. Bir necha yil Qorako'l tumani “Chorvador” gazetasi muharriri ham bo'ldi. 1927–1929-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida o'qiydi. Oliy ta'limdan keyin u Qarshi, Toshkent,

Samarqandning Nurota va Namanganning Chust tumanlarida mas'ul lavozimlarda mehnat qiladi.

1939-yilda yangi tashkil etilgan Qamashi tumaniga kelgan Abdulla Abdurahmon o'g'li Gulshaniy shu yerda 1957-yilda nafaqaga chiqadi.

ABDULLA GULSHANIYNI 1962-yilda Toshkentga O'zFAsining til va adabiyot institutiga ishga taklif etadi. U qisqa muddat ichida Jomiyni “Risolayi manzuma” asarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qildi. Shuningdek, Navoiy qalamiga mansub “Majolis un-nafois” asaridan 1 000 baytli, “Xazoyin ul-ma'oni” asaridan 600 satrli muammoni yechadi. M. Nishopuriyning “Muammo fani qoidolari haqida” kitobidan 6 654 satr, “Muammo qoidolari” risolasidan 1 340 satr, “99 nomli muammo” kitobidan 650 satr muammoli she'rni o'zbek tiliga o'giradi.

1978-yilning 28-dekabriga qadar Qamashi shahrida muqim yashab, 80 yoshida vafot etgan Abudlla Gulshaniydan 2 jilddan iborat “Gulistoni Gulshaniy” devoni, 3 jilddan iborat tojikcha she'rlar to'plami, muammo va chistonlari jamlangan “Muammiyot” asari, “To'y-u to'yona”, “Ariza”, “Kunlarim” dostonlari meros bo'lib qoldi. Shoirning jami 16 ming 854 misradan iborat adabiy merosi Toshkentdagi qo'lyozmalar institutida saqlanmoqda.

Taniqli adib, marhum Sa'dulla Siyoyev 1971-yilda Qamashiga kelib Abdulla Gulshaniy bilan uchrashib suhbatlashadi. “Hukumatning avliyosi” nomli maqola yozib, Guliston jurnalida e'lon qiladi. Keling, o'sha maqoladan iqtibos

o'qiylak:

Sa'dulla Siyoyev:

– Shuncha qo'lyozma kitoblari yozibsiz. Bularni biror yerda bostirsangiz bo'lmasmidi?

Gulshaniy:

– Mana, oqqa ko'chirib, tayyorlab qo'ydim. Kimga kerak bo'lsa, chiqarib olar...

Shoirning istehzoli javobidan shu narsa sezilib turibdiki, asarlarini kitob holida nashr ettira olmagach, o'zi o'tirib, majmua-to'plamlar tayyorlagan. Kelajakda ijodi bilan kimlardir shug'ullanib, asarlari nashr etilishini orzu qilib yashagan.

Abdulla Gulshaniyning shogirdlaridan biri jurnalist, shoir va adib rahmatli Abdivoy Rahim Qamashi tumani gazetasida ishlab yurgan kezlarida shoir bilan ko'p bora uchrashib, suhbat qurgan va xotiralarini yozib olgandi. Oradan yillar o'tib, domlaniy yelib-yugurishlari tufayli Abdulla Gulshaniyning “Alvido” nomli g'azallar to'plami va “Abdulla Gulshaniy” nomli xotiralar kitobi nashr etildi. Ustozining hayoti va ijodi haqida o'nlab maqolalar, bir pyesa yozib chop ettirdi.

Kunlarning birida domla qo'limga bir nechta varaq tutqazib, dedi:

– Shularni kompyuterda ko'chirib bersang, bilasanmi yanagi bahorda Abdulla Gulshaniy boboning tug'ilganiga 120 yil to'ladi. Shahrisabz hokimiga xat tashlamoqchiman. Axir, Shahri Kesh allomaning tug'ilgan shahri. Bir o'ylab ko'rishar...

Oradan ancha kunlar o'tib domlani yana uchratib qoldim.

– Mashina yollab, Shahrisabzga bordim. Afsus, hokim qayoqqadir ketgan ekan. Yordamchisiga xatni tashlab, tayinlab keldim. Biror natija bo'lib qolar...

– G'azalnavist shoirgina emas, yetuk olim va tarjimon, islom ilmining bilimdoni bo'lgan Abdulla Gulshaniyning boy merosi hali o'rganilgan emas, – deydi O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Abdusattor Jumanazar.

Qashqadaryo vohasidan yetishib chiqqan yetuk ijodkor Abdulla Gulshaniy Shahrisabzni bir umr sog'inib yashadi va taqdir hukmi bois, Qamashida umrguzaronlik qildi. Jadid bobolarimizning do'sti, hammaslagi Abdulla Gulshaniy xotirasini abadiylashtirish, elga tanitish bugun ham Shahrisabz va Qamashi mutasaddilarining muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

O'rolboy QOBIL

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

15-may – Xalqaro oila kuni



Oila – eng munis fazilatlar beshigi, jamiyat gultoji. Bu go'shaning biz uchun qadri bo'lgan yana bir jihati – unda millat davomchilari kamol topadi. Shuning uchun ham, ayniqsa Sharq xalqlarida oila bo'lib umr kechirish, bu maskanda totuvlikni, birdamlikni ta'minlash, uni mustahkamlash qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bu borada yurtimizda qator islohotlar, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Mudofaa vazirligi qo'shinlarida har yili harbiy oilalar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Ibratli harbiy oila" ko'rik-tanlovi ham shunday ezgu amallar sirasidandir.

Harbiy xizmatchilarning oilalarida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ular ongida tariximiz, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizga chuqur hurmat va ehtiromni yuksaltirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash, ular orasida sog'lom raqobat ruhini qaror toptirish, mazkur oilalar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan ushbu tadbir shu kungacha yuzlab ibratli oilalarni, iqtidorli farzandlarni kashf qilgani bilan e'tirofga sazovordir.

Bu yil tanlovning Mudofaa vazirligi bosqichiga Sharqiy harbiy okrug mezbonlik qildi. "Yangi O'zbekistonning ibratli oilasiman" shiori ostida tashkillashtirilgan tanlovda harbiy okruglardan kelgan yettita oila ishtirok etdi. Ularning chiqishlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Respublika Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda Mudofaa vazirligi mas'ul vakillaridan iborat nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan adolatli baholab borildi.

"Oilam – mening baxtim" deb nomlangan birinchi shart ishtirokchi oilalar uchun o'ziga xos tanishtiruv sharti bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur shart davomida deyarli barcha qatnashchilar turli san'at turlarini qo'llagan holda, har



"YANGI O'ZBEKISTONNING

tomonlama sog'lom, ibratli oilaning jihatlarini ko'rsatib bera oldi. Shart davomida oila a'zolari erishgan yutuqlar namoyishi ham e'tirofga sazovor.

Ko'rik-tanlovdan o'rin olgan darts va "Kuch birlikda" shartlari haqiqiy ma'nodagi sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi, katta-yu kichikda sportga bo'lgan qiziqishni oshiruvchi shartlardan bo'ldi. Yanayam ahamiyatli "Kuch birlikda" sharti doirasida amalga oshirilgan timbiding musobaqalari ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi hamjihatlikni, mehr-oqibatni mustahkamlashga xizmat qilgani bilan ko'pchilikka manzur bo'ldi.

She'riyatga oshno ko'ngildan yomonlik chiqmaydi, deyishadi. Haq gap. Zotan, she'r insonning eng toza va samimiy tuyg'ularini junbishga keltiradi. Yurak va aql birligini namoyon qilib, qalb g'uborini ketkazadi. Shunday ekan, ayniqsa ayollarning she'riyatni sevishi, uni o'ziga hamroh deb bilishi ularning millat tarbiyachisi sifatidagi ma'naviy kuchini oshiradi. Ularda eng sara sifatlarini shakllantirishga sabab bo'ladi. Ko'rik-tanlovdagi "She'riyat gulshani" sharti



IBRATLI OILASIMAN"

harbiy oila bekalaridagi ana shunday go'zal sifat va fazilatlarni yuzaga chiqardi va yana harbiylarning ayollari har tomonlama ibratga, hurmatga, ehtiromga sazovor ekanligini namoyish qildi.

Ko'rik-tanlovning "Musiqiy kompozitsiya" sharti haqida ham shunday iliq fikrlarni aytish mumkin. Bu shartning o'ziga xosligi – u oilalardagi iste'dod egalarini kashf qildi.

Milliy laparlarni, zamonaviy qo'shiqlarni, jonli ijroda maromiga yetkazib ijro etgan ishtirokchilarning mahorati tomoshabinlar tomonidan ham yuksak e'tirof etildi.

Ha, qo'shiqda ham qudratli kuch bor. U ko'ngillarni yaqinlashtiradi, har bir aytilgan so'z va ijro etilgan kuyda ezgulik tarannum qilinadi. Shu ma'noda oilada qo'shiq shinaavandalarining bo'lishi bu dargohda ma'naviy-ruhiy muhitni qaror toptiradi. Eng muhimi shu. Demak, bu shartning ko'rik-tanlov shartlariga kiritilishi ham bejiz emas.

Osh chempionati esa o'zbek millatining mehmondo'stligini va yana milliy qadriyatimizni namoyish qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Ochiq osmon ostida yettita qozonda damlangan yetti viloyatga tegishli osh, ko'rinishi va mazasining o'ziga xosligi bilan baholashda hakamlar hay'atiga ham biroz qiyinchilik tug'dirgani rost. Muhimi, bu shart orqali tanlovda ishtirok etayotgan harbiy oila beklari qanchalik pazanda ekanini ko'rsata oldi.

Murosasiz kechgan bellashuvlarda ota-onalari bilan tengma-teng faollik ko'rsatgan bolajonlar ishtirokini ham e'tirof etmasak bo'lmaydi. Zotan, zukko, sportsevar va bilimli bu o'g'il-qizlar timsolida biz yorug' kelajagimiz davomchilarini ko'rdik.

Nihoyat, yakuniy natijalar e'lon qilindi. Unga ko'ra, 1-o'rin kichik serjant Hasan Ikramovlar oilasiga (*Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi*) nasib qildi. Ikkinchi o'rinni kichik serjant Nodirbek Qurbonovlar oilasi (*Sharqiy harbiy okrug*) qo'lga kiritdi.

III darajali serjant Sardor Kuysinovlar oilasi (*Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug*) esa uchinchi o'rin sohiblari bo'ldi.

Tanlovda ishtirok etgan boshqa oilalar ham turli nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandi.

Barcha ishtirokchi oilalar Mudofaa vazirligi va hamkor tashkilotlar tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlandi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA,
"Vatanparvar"**



Tanlov

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalarida yurt himoyachilari hamda ularning oila a'zolari ishtirokida muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilmoqda.

IBRATLILAR aniqlandi



An'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Yangi O'zbekistonning ibratli harbiy oilasi" shiori ostida o'tadigan ko'rik-tanlov ham jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilalarning mustahkamligini ta'minlash, ularda har jihatdan yetuk, barkamol hamda asl vatanparvar avlodlar voyaga yetishini ta'minlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tanlovning viloyat bosqichida yuqori natijani qo'lga kiritgan harbiy oilalar respublika bosqichida bellashish uchun DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonligida jam bo'ldilar.

Dastlabki shart "Tanishtiruv" deb nomlanib, unda qatnashchilar

o'z oilalarini she'riy tarzda, kuy-qo'shiq, raqslar hamda videolavhalar yordamida batafsil tanishtirishlari talab etildi. Ushbu shartni o'zaro ahillik va hamjihatlikda mahorat bilan uddalagan ishtirokchilar, tanlovning 2-shartida kundalik hayotda uchrab turadigan turli illatlar, ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta'siri, "ommaviy madaniyat" xurujlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishning noxush oqibatlarini sahna ko'rinishlari orqali namoyish etib berdilar. Mazkur jarayonda oila a'zolarining iste'dodi, uyushqoqligi,

ayniqsa sahna ko'rinishlarida farzandlarning ishonarli tarzda chiqishlari barchaga birdek manzur bo'ldi.

Har bir oilaning tayyorgarlik darajasi, intilish va harakatlari hakamlar hay'ati tomonidan xolisona baholab borildi.

Albatta, oilada keng dunyoqarash shakllangani, bilim, salohiyat va tafakkur yuqori darajada bo'lishi

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, tanlov ishtirokchilarining zukkoligi va salohiyatini sinovdan o'tkazuvchi 3-shart "Bilimdonlar bahsi" deb nomlanib, unda ishtirokchilar ijtimoiy, siyosiy va hayotiy mavzular bo'yicha tayyorlangan savollarga javob berdilar.

Ko'rik-tanlovning ikkinchi kuni "Toshkent dengizi" dam olish maskanida tashkil etilib, harbiy oilalar dastlab "Sport – salomatlik garovi" shiori ostida bo'ladigan estafetada o'zaro bellashdilar. Darts, kegli va to'pni savatga tushirish davomida oilalarning hamjihatligi, epchilligi hamda chaqqonligi sinovdan o'tkazildi.

Sport musobaqalari yakuniga yetgach, tanlovning so'nggi "Oshga marhamat" shartiga start berildi. Ushbu shartda oilalarning pazandaligi va saranjom-sarishtalikasi namoyon bo'ldi.

Ko'rik-tanlov davomida taniqli adib, o'zbek romanchiligining

asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlari bo'yicha "Kitobxon ona" ko'rik-tanlovi, shuningdek harbiy xizmatchilarning fan olimpiadalari, mental arifmetika, sport musobaqalari va boshqa ko'rik-tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli farzandlarining yutuqlarini e'tirof etish tadbirlari ham tashkil etildi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslarning yakuniy natijalariga ko'ra, 3-o'rinni Jizzax viloyatidan qatnashgan Olimovlar oilasi, 2-o'rinni Surxondaryo viloyatidan kelgan Ruzmatovlar oilasi, faxrli 1-o'rinni esa Qashqadaryo viloyatidan ishtirok etgan Yuldashlar oilasi egallagan bo'lsa, Sirdaryo viloyatidan tashrif buyurgan Absoatovlar oilasi ko'rik-tanlovning mutlaq g'olibligiga erishib, "Yangi O'zbekistonning eng ibratli harbiy oilasi", deya e'tirof etildi.

Tadbir davomida taniqli san'atkorlar hamda DXX Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ham barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

MUVAFFAQIYATLI OILA

— HAMJIHATLIK SAMARASI



Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – bu farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligi hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonda oilalarni mustahkamlashga global darajada e'tibor qaratilib, bu borada davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo'lga qo'yish, ajrashishlar bilan bog'liq salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash orqali oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta'sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko'rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan. Lekin shunga qaramay, oila buzilishi bilan bog'liq muammolar borligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ajrashish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqda. Ularning e'tiborlari bu hodisa sababi, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, oila buzilishlarining salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat ajrashgan er-xotin va farzandlari balki, jamiyat ham ko'p

zarar ko'radi. Ajrimlar ko'plab noxush hodisalar, qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, har bir tarixiy davrda oilaning buzilishiga olib keluvchi sabablar turlicha bo'lgan. Ayniqsa, Sharqda oila qadimdan muqaddas deb baholangan va uning barqarorligini saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois an'anaviy Sharq jamiyatlarida oilaning buzilishi juda kam uchraydigan holat bo'lgan. Albatta, bunda ikki tomonning murosayi madora qilib yashagani muhim ahamiyat kasb etgan.

Bugungi kunda jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar natijasida ayollar va erkaklar roli sezilarli darajada transformatsiyaga uchrayotgani kuzatilmoqda. Ayollar endi faqat oila doirasida emas, balki jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirok etayotgan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, o'z haq-huquqlarini anglagan, mustaqil fikrlaydigan shaxslar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular erkaklar bilan yelkadosh bo'lib, turli kasblarda mehnat qilmoqda, ilmiy, siyosiy va davlat boshqaruvi sohalarida faoliyat yuritmoqda.

Erkaklar esa nafaqat moddiy ta'minlovchi, balki oiladagi ruhiy barqarorlikni saqlashda, farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlarda faol ishtirok etishga intilmoqda. Aslida ham zamonaviy erkaklar o'z oilasi uchun mas'uliyatni his qiluvchi, ayolining mehnatini qadrlaydigan, farzandlari uchun namuna bo'ladigan shaxs bo'lishi lozim. Zotan, ular ham ayollar singari jamiyatning rivojiga o'z hissasini qo'shib, mehnat, ilm va ijtimoiy faollik orqali barqarorlikka xizmat qilmoqda.

Ayol va erkakning jamiyatdagi teng va o'zaro hamjihat ishtiroki – nafaqat jamiyat taraqqiyoti, balki mustahkam va sog'lom oila qurish uchun ham muhim asos hisoblanadi. Uy va ish o'rtasidagi muvozanatni saqlab, har ikki jabhada mas'uliyatni teng taqsimlagan holda harakat qilish zamonaviy oilaviy hayotning muhim shartlaridan biridir.

Biroq shunga qaramay, ayrim hollarda ayollarimiz oiladagi burch va vazifalarini unutib qo'yayotgani kuzatilmoqda. Bu esa oilada samimiylik, ruhiy yaqinlik va o'zaro ehtiromga putur yetkazib, munosabatlarda sovuqlik, tushunmovchilik va tanglik yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti.

Xuddi shu kabi, ba'zi erkaklar ham o'zining oila boshlig'i sifatidagi burchlarini – mas'uliyat, e'tibor, himoya va moddiy hamda ma'naviy tayanch bo'lish vazifalarini unuta boshlayapti. Natijada, oila muhitida beqarorlik paydo bo'lmoqda.

Shunday nomaqbul vaziyatlarda har ikki tomonning bee'tiborligi natijasida oilaviy munosabatlar izdan chiqishi, bir-birini anglamaslik va uzoqlashish holatlari yuzaga keladi. Bunday ruhiy uzoqlashish esa oxir-oqibatda oilaning parokandaligiga olib kelishi ehtimolini kuchaytiradi. Zero oilaviy hayotda er-xotin o'rtasidagi munosabatlar muhabbat bilan chegaralanib qolmaydi, bunda ma'naviy hamfikirlik ham kerak, chunki oilaviy turmush vaqtinchalik ish emas, balki bir umr davom etib, turmushda er-xotin o'rtasidagi sadoqatning shodlik va g'am-qayg'u daqiqalarida hamdardlikning sinovidir. Ayrim oilalar er-xotin munosabatlari yomonligi, nizolar chuqurlashuvi, zo'riqishlar keskinlashuvi (*hatto ayrim hollarda arzimagani nizolar*) tufayli buzilib ketishi mumkin.

Oilaning buzilishi – bir yostiqqa bosh qo'ygan ikki insonning turli sabablarga ko'ra, ajrashishga majbur bo'lishi hayotdagi eng noxush holatlardan biri sanaladi. Eng yomoni u ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarliklarning ko'payishi, nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni bu holatda faqat er-xotin o'ziga ko'ngilsizlikka uchrab qolmaydi, balki bunda ko'proq oiladagi bolalar ozor chekadi.


Hayotiy kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, nikohlarning bekor bo'lishi va ajrimning yuzaga kelishiga turli omillar sabab bo'lmoqda. Avvalo, yosh oilalar hayotiga ota-onalarning ortiqcha va o'rinsiz aralashuvi ko'pincha kelishmovchiliklarga yo'l ochadi. Shuningdek, kelinning yangi oila muhitiga moslashmasligi, turmush o'rtog'ini faqat moddiy yoki ijtimoiy maqsadlarni ko'zlab tanlash holatlari, bolalikda berilgan noto'g'ri tarbiya, juftlardan birining bevafoqligi, oilada teng huquq va burchlar tamoyilining buzilishi, farzandsizlik kabi omillar ham turmush barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ruhiy tushunmovchiliklar, oila ishlariga tashqi shaxslarning aralashuvi, ma'naviy muhitning zaifligi va yoshlarning oilaviy hayotga ruhiy jihatdan tayyor emasligi ham ajrim ehtimolini oshiradi. Bunday holatlardan qochish uchun esa har ikki tomon – erkak ham, ayol ham mas'uliyatni his qilishi, o'zaro hurmat va bag'rikenglik asosida muammolarni hal etishi muhim ahamiyatga ega.

Bundan xulosa qilish mumkinki, mustahkam va barqaror oila qurish o'zaro hurmat, sabr, mas'uliyat va tushunishga asoslangan murakkab ijtimoiy-ruhiy jarayondir. Ajrimning oldini olish uchun esa er-xotin har ikkisi ham bir-birini tinglashi, tushunishi, ehtiyoj va burchlarini his etishi, oilaviy hayotdagi qiyinchiliklarni yelkadoshlikda yengishga tayyor bo'lishi lozim. Zamonaviy hayot talablari jamiyatdagi har bir shaxs – erkak va ayoldan oilada faol, oqil va mas'uliyatli ishtirokni talab etadi. Faqat shundagina oiladagi muhabbat, inoqlik va hamjihatlik muhiti saqlanadi, bu esa jamiyatning ma'naviy barqarorligi va kelajak avlod tarbiyasi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

**Podpolkovnik Akmal ZOIROV,
Toshkent harbiy okrugi
harbiy psixologi**

18-may – Xalqaro muzeylar kuni



MUZEY MOZIY KO'ZGUSI

Muzey ota-bobolarimizning ma'naviy merosi, turmush tarzi, san'ati, ilm-u ma'rifatini samarali targ'ib qiluvchi, xalqimizning tarixi, madaniy boyligi va qadriyatlarini yig'ish, saqlash, o'rganish, dunyoga tanitishga xizmat qiluvchi muhim maskandir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi 1965-yil 9-may sanasida Toshkent shahridagi Markaziy ofitserlar uyi qoshida tashkil etilib, Turkiston harbiy okrugining Qurolli Kuchlar markaziy muzeyi nomi bilan o'z faoliyatini boshlagan. 1975-yilning 7-may sanasida Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 30 yilligi munosabati bilan muzey ayni vaqtda joylashgan 3 qavatli binosiga ko'chirilgan.

Ma'naviyat maskanida harbiy tarixiy ashyo va noyob eksponatlar saqlanish bilan birga ilmiy jihatdan o'rganiladi va keng ommaga namoyish qilinadi. Ushbu qadamjoda ko'plab mehmonlar, chet el delegatsiyalari, respublikamiz viloyatlari, Qoraqalpog'iston va Toshkent shahridan kelgan mehmonlar uchun doimiy ekskursiyalar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi 60 yillik faoliyati davomida ko'plab muzeylarga va davlat tashkilotlariga o'zining ilmiy-metodik hamda amaliy yordamini

ko'rsatib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, DXX Chegara qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Bosh prokuratura tarixi muzeylariga, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Farg'ona shahridagi "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi hamda "Shon-sharaf" davlat muzeylariga 12 800 dan ziyod noyob eksponatini o'z fondidan Prezident hamda mudofaa vaziri ko'rsatmasiga binoan taqdim qilgan. Hozirgi kunda ular muzeylarning asosiy ekspozitsiyasidan munosib o'rin olgan.

Yaqinda ushbu muzeyda ko'p yillar rahbarlik qilgan Sodiq Ortiqov bilan suhbatlashib, bir qancha tarixiy ma'lumotlarga ega bo'ldim. 1991-yil Lvov oliy harbiy siyosiy bilim yurtini tamomlab, Toshkentga qaytgan Sodiq Xidirovich o'z xotiralari bilan o'rtoqlashdi: – 1993-yil 1-noyabrdan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi boshlig'i lavozimiga tayinlandim. O'zbekiston Respublikasi birinchi mudofaa vaziri Rustam Ahmedov "Muzeyga kelayotgan yoshlarga va mehmonlarga O'zbekiston tarixini o'zbek ofitseri so'zlab bersin", deya meni o'zlari tayinlagan. Lavozim vazifalarini bajarishni muzey ekspozitsiyalarini o'zbek tiliga o'girishdan boshlaganman. 1-qavatda "Oktabr revolyutsiyasi tarixi" zalini "Milliy ozodlik kurashi qatnashchilari" zaliga, 2-qavat "Ulug' Vatan urushi tarixi" zalini "O'zbekistonning fashizmga qarshi kurashga qo'shgan hissasi" zaliga, 3-qavat Turkiston

harbiy okrugi tarixi zalini "Mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari" zaliga moslab jihozladik va muzeyning yangi konsepsiyasini yaratdik.

1994-yildan boshlab muzey oldidagi parkka "Jasorat bog'i" nomi berilib, yangidan jihozlandi. Samolyot va boshqa harbiy texnikalar olib kelindi. Bolalar maydonchasi, o'q otish (*tir*) majmuasi binolari qurildi. Yangi favvora o'rnatildi. Bog'dagi haykal poyida o'zbekistonlik 301 nafar urush qahramonining nomi abadiylashtirildi. 1994-yildan boshlab ushbu majmuada Toshkent garnizoni muddatli harbiy xizmatchilari Vatanga qasamyod qilib kelmoqda. Muzeyda urush va Qurolli Kuchlar faxriylari kengashi ish olib bordi. Muzey 1999-yilda rekonstruksiya qilinib, ko'rgazma zallari yangidan jihozlandi va unga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari markaziy muzeyi maqomi berildi. 16 yil shu muzeyda rahbarlik qilganimdan faxrlanaman. O'sha vaqtda olib kelingan eksponatlar muzey zallaridagi ko'rgazmada namoyish etilayotganidan doim xursand bo'ldim.

2009–2010-yillar oralig'ida muzey binosi va hududi tubdan rekonstruksiya qilingan va yangilangan ekspozitsiyasiga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi maqomi berilgan. 2023-yil 28-dekabr sanasida oliy toifali muzey maqomiga ega bo'ldi. Muzeyning ko'rgazmalari zalida doimiy ravishda bayram sanalariga atab taniqli rassomlarning ko'rgazmalari tashkil etiladi. Ushbu dargohda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli hamda alohida namunali ko'rgazmali orkestrning musiqiy chiqishlari an'anaviy tarzda

ijro etiladi. Muzeyda mehmonlar, harbiy xizmatchilar va oila a'zolari, yoshlarning qalbida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantirishga oid tadbirlar va ijodiy uchrashuvlar o'tkazib kelinmoqda.

Muzey binosi 2021–2022-yilda qayta kapital ta'mirlandi va 2-qavatda "Yangi O'zbekistonda harbiy islohotlar" bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'limda so'nggi yillarda Mudofaa tizimidagi harbiy islohotlar keng yoritilgan bo'lib, Yurtboshimiz tomonidan ta'sis etilgan bir qancha orden va medallar ham ekspozitsiyadan munosib o'rin egallaydi. Bundan tashqari, ilmiy-metodik axborot markazi, fond bo'limi, 5 400 dan ortiq noyob ilmiy-tarixiy kitoblarni o'zida mujassam etgan kutubxona ham yangilandi.

Har yili muzeyga o'rtacha 42 mingdan ortiq aholi, yoshlar, harbiy xizmatchilar va xorijiy sayyohlar tashrif buyurib, O'zbekistonning harbiy tarixiga oid bebaho eksponat ma'lumotlaridan bahramand bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng davlatimiz hududida harbiy san'at o'tmishi, turli tarixiy davrlarda yuz bergan voqealar, jumladan davlatchilikning yuzaga kelishi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining shakllanishida o'zining bebaho hissasi qo'shgan buyuk sarkardalar va qahramonlar, harbiy san'atning qurollanish, harbiy texnikaning rivojlanishi obyektiv yoritilishida ushbu muzey uzoq yillar ma'rifat o'chog'i bo'lib xizmat qiladi.

Gulnoza USMONOVA,
Qurolli Kuchlar davlat muzeyi
yetakchi ilmiy xodimi

Ibrohim Tohiriy

VA “SADOYI TURKISTON” GAZETASI

“Tatar vaqtlı matbuotida Turkiston” nomli kitobning elektron nusxasi qo‘limga tushdi. Kitob XX asr boshlarida tatar vaqtlı matbuotida Turkiston haqida chop etilgan maqolalardan iborat ekan. Tatar ziyolilari Turkiston xalqi madaniyati, tarixi, urf-odatları haqida ko‘plab materiallar berishgan ekan. Mualliflarning safar ocherklari kishining e‘tiborini tortadi. Mana shunday ocherklardan biri “Ko‘rgan-kechirganlarim” deb nomlanib, Ibrohim Tohiriy muallifligida “Sho‘ro” jurnalida 1914-yilda chop etilgan.

Ma‘lumot o‘mida aytish joizki, “Sho‘ro” ijtimoiy-ma‘rifiy va adabiy-publistsistik jurnal bo‘lib, 1908-yilning 10-yanvaridan 1917-yilning 31-dekabrigacha Orenburg shahrida tatar tilida chop etiladi. Jurnal oyiga 2 marta nashr etilib, jami 240 ta soni dunyo yuzini ko‘rgan. “Sho‘ro” jurnalining noshiri M. Ramiyev (*keyinchalik Z. Ramiyev*), muharriri R. Faxretdinov bo‘lgan. Y. Akchura, Z. Bashiriy, M. Bigiyev, Y. Vali, Validiylar tahririyat a‘zolari hisoblangan. Tatar oltin sanoati egalari bo‘lgan Ramiyevlar sharoﻓati bilan jurnal yuksak poligrafik sifatda muntazam chop etib kelingan.

Maqolaga keladigan bo‘lsak, muallif uni “Turkistonga sayohat etmoq orzusida shu qish Toshkent shahriga kelib, uch-to‘rt hafta shaharda qolib ketdim. Toshkent shahriga kelib, muhtaram yurist Ubaydulla Xo‘jayev janoblari tomonidan Turkiston mahalliy tilida haftasiga ikki marotaba chop etilayotgan “Sadoyi Turkiston” gazetasini uch-to‘rt kun topmadim”, deb boshlaydi. “Sho‘ro” jurnalida “Sadoyi Turkiston” gazetası chıqıa boshlagani haqidagi xabar bosilganini filologiya fanlari nomzodi

Sayyora Halimova ham tadqiqotida keltirib o‘tadi. Biroq olim keltirgan ma‘lumotda “Sho‘ro” jurnalining 1914-yil 5-may soni, deb qayd etilgan. Biz yuqorida tilga olgan manbada esa jurnalning 1914-yil 23-soni, deb yozilgan. Har oyda jurnal 2 marta chop etilganini hisobga olsak, may oyida nashrning 23-soni chiqishi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Demak, “Sho‘ro” jurnali “Sadoyi Turkiston” gazetası haqida yana alohida material chop etgan bo‘lishi mumkin.

Ubaydulla Asadullaxo‘jayev 1913-yilning 21-dekabrida Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatoridan Toshkentda “Sadoyi Turkiston” nomli xususiy gazeta chiqarish uchun ruxsatnoma olishga erishadi. Filologiya fanlari nomzodi Sayyora Halimovaning yozishicha, 1914-yilning 4-aprel kuni Toshkentdagi V. M. Ilin bosmaxonasida “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1-soni bosilib chiqadi.

Ibrohim Tohiriyning maqolasi “Sho‘ro” jurnalida 1914-yilda chop etilganiga qaraganda, u Toshkentda “Sadoyi Turkiston”ning ilk sonlarini o‘qishga muvaffaq bo‘lgan. Qolaversa, muallifning

maqolada “Bu yilning aprelida chop etila boshlagan “Sadoyi Turkiston” gazetasining o‘qishli bo‘lishi muhtaram yurist, Ubaydulla afandi Xo‘jayevga bog‘liq”, degan so‘zlari ham buni tasdiqlaydi.

Maqola avvalida muallif bir muammoni o‘rtaga tashlab, “turkistonliklar yashil-qizil” rangli kitoblarini qo‘yib, gazeta o‘qishga odatlanishsa, “Sadoyi Turkiston” mushtariylari 6-7 mingga yetgan bo‘lardi, deydi. Ibrohim Tohiriy Turkistonning har bir joyidagi kitob sotuvchilar ham turli hikoyat, rivoyatlarini qo‘yib, quvvatning ko‘zgusi bo‘lgan gazeta o‘qishga odatlansa, bo‘sh o‘tirganida axborotlarga ega bo‘lsa, yaxshi bo‘lardi, deya fikrini davom ettiradi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, muallif turkistonliklarning gazetonlik madaniyati bilan bog‘liq muammoni ham o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bu fikrlar gazetonlik noyob hodisaga aylanib borayotgan bugungi kunimiz uchun ham bong urilgandek, tuyuldi menga.

Muallif, o‘z navbatida, masalaning ikkinchi tomoniga ham e‘tibor qaratadi. Ya‘ni gazetonlik madaniyati oshishi uchun nashr sifatini ham oshirish kerakligi borasida fikrlarini yozadi. Masalan, “Turkiston lahjasida chop etilayotgan gazetalarga qaraganda “Sadoyi Turkiston”ning boshqaruvi, uslubi, tili taraqqiy etgan ko‘rinsa-da, o‘zidan oldin chop etilgan ikkita nashr yo‘lidan uzoq keta olmaydi”, deydi. Ya‘ni oldinroq chop etilgan nashrlar bilan bir xil bo‘lib qoldi, degan fikrni aytadi. Nega bunday xulosaga kelgan? Bu savolga maqolaning davomida javob berar ekan, Ibrohim Tohiriy gazetaning o‘z o‘quvchilariga “Miskin qalandar, darveshlar uslubida sufiyona falsafadan va‘z so‘zlaydi”, deydi.

Gazetadagi hikoyalar, maqolalarda ta‘rif-ifodalar, ilg‘or fikrlar berilishini maqtab, shu yo‘sında davom etsa, har jihatdan taraqqiy etishini bildiradi. Muallif nashrning qanday davom etishini istagan? Buni quyidagi fikrida yaqqol sezish mumkin: “Bu gazetaga ishtirok etadigan qalamkashlar orasida qalami-da, fikrlari-da go‘zal, shaxt bilan yozuvchilar ko‘rinadur. Nomerı xotiramda qolmagan. “Sado”ning bir sonida muhtaram Indamas afandi felyeton shaklida “Madaniyat to‘lqinlari” sarlavhali bir maqola yozgan”. Ibrohim Tohiriy aynan shu maqoladan ta‘sir lanib, Turkiston madaniyati rivojıdagi og‘riqli muammolar haqida fikrlari, mulohazalarini yozadi va uning yechimlarini ko‘rsatib beradi.

Muallifning fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin:

- tatar ziyolilari millatni g‘aflat va jaholatdan uyg‘otishda Turkiston jadidlariga katta umid, ishonch bilan qarashgan;
 - Turkiston jadidlari tomonidan nashr etilayotgan gazeta va jumallarni ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashgan;
 - turkistonliklarning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlarga befarq bo‘lishmagan;
 - Turkistonning zamon bilan hamnafas taraqqiy etishiga xayrixoh bo‘lishgan.
- Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sayyora Halimovaning keltirishicha, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev “Sadoyi Turkiston” gazetasining maqsad va maslagini belgilashda Ismoil Gaspirali tomonidan 1883-yilda Qrimda chiqarilgan va Turkistonda ham keng tarqalgan mashhur “Tarjumon” ilgari surgan ma‘rifatparvarlik g‘oyalaridan ilhomlangan. Shu sababli ham jadid matbuoti, xususan “Sadoyi Turkiston” gazetası tatar ziyolilarining diqqat markazida bo‘lgan va Ibrohim Tohiriy kabi ijodkorlarning maqolalarida aks etgan, deb o‘ylaymiz.

Alijon SAFAROV,
O‘zJOKU Harbiy va sport
jurnalistikasi kafedrası mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent

Ilm-u

odob targ‘ibotchilari

Hozirda chin ma‘nodagi vatanparvar va ma‘rifatparvar bo‘lgan, o‘z davri uchun yangi zamonaviy ilm, yuksak ma‘naviyatni, insonparvarlik dunyoqarashini xalq ommasiga keng yoyishga intilgan, erk va hurriyat kuychilari – jadid bobolarimiz merosini o‘rganishga ulkan e‘tibor qaratilmoqda.

Bu bejiz emas, chunki jadidlar jannatmonand o‘lkamiz – O‘zbekistonni tenglar ichra teng, hech bir davlatga qaramsiz ko‘rish, dunyodagi barcha mamlakatlar, ayniqsa turkiy tilda so‘zlashuvchi qardosh xalqlar bilan yaqin madaniy, iqtisodiy aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilishini istagan ziyoli kishilar bo‘lishgan. Ular ta‘limda sifat yuksakligi, farzandlarimizga namunali tarbiya berilishi uchun ham jon kuydirgan.

Yaqında jadidlarimiz ijodidan namunalar jamuljam bo‘lgan “Odob-axloq kitobi”ni yana bir bora diqqat bilan o‘qib chiqdim. Asarda jadid adabiyotining eng yirik namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon

yoʻzgan asarlar – she‘r, maqola, hikoyalardan namunalar kiritilganing kitobsevarlarga ma‘lum. Shu ulug‘ adıblarning ota-ona hurmati, duosini olish zarurligi haqidagi fikrlari o‘ziga xos tarbiya manbaidir.

Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Muhtaram yoshlarga murojaat” nomli maqolasida shunday ibratli so‘zlar bor: “Yigitlar, qizlarimiz zamonaviy ta‘lim olaman, deb yot madaniyatlarga ergashishlari hech maqbulmas. Zotan, ularda ota-ona, aka-opa, qarindosh yaqınlar, katta yoshlılarga izzat-e‘tibor ko‘rsatishda bizlarchalik baland daraja yo‘q. Volida-yu padarlar, o‘zidan bir yashar katta bo‘lsa-da, o‘zgalarga hurmatni muallim o‘rgatsun”. Abdurauf Fitratning “Hayot va hayot g‘oyasi” maqolasidagi

ushbu ibratnamo satrlardan ham olamjahon ma‘no olish mumkin: “Farzand madaniyati nafaqat chuqur bilim olgani, ulug‘vor maqsadlari, balki o‘zini dunyoga keltirgan, ilk tarbiya saboqlarini bergan, halol rizq topib yedirtirgan ikki zot – volida-yu padarlariga munosabatida namoyon. Bu munosabat mehr-muhabbatli ijobiy bo‘lsagina komillikka erishilgay”.

Tengi yo‘q pedagog olim, shoir va yozuvchi Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridan olingan mana shu parchani ham hayajon bilan o‘qiysiz: “Har qancha boy, ilmi yo polvon bo‘lsa-da, ota-onaga risoladagidek hurmatni bajo etmaganlar ko‘zimizga xunuk ko‘rinur. Mezon tarozusiga qo‘yilganda, alarning bu odobsiz, axloqsizliklari tosh bosmas”. Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adib us-soniy” asaridan ham parchalar berilgan bo‘lib, “Ota-ona” nomli parchada quyidagi satrlar mavjud: “Dunyodagi bolalarga eng do‘st va mehribon kishilar o‘zlarin ota va onalaridirlar. Bolalarga chin do‘stlik va yaxshilikni ota-onadan boshqa hech kim qilolmaydur. Shu bois ota-onaning duo-rizosini olish oliy burch”.

Yana to‘plamga kirgan Abdulla Qodiriyning “Uloqda”, Abdulhamid Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyalarida ham ota-onaga izzat, qizlar tarbiyasi haqida ibratli

so‘zlar yozilganidan ta‘sir landim va mahallamiz yoshlariga aytib bersam, qiziqib eshitdi...

Jadid bobolarimiz yozgan asarlarni adabiyotshunos olim va ziyolilar yo talabalar o‘qisagina to‘liq tushunadi, degan xato mulohazaga bormasligimiz lozim. Chunki ular xalqqa yaqin bo‘lishga intilib, ayniqsa yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga oid o‘z asarlarini oddiy, ravon, faqat ona tilimizdagi so‘zlardan foydalangan holda yozishga intilgan. Maqolamizda ularning bebaho asarlaridagi ota-onani hurmat qilish haqidagi fikrlarini oldim, xolos. Vaholanki unda Vatan tuyg‘usi, jaholatga qarshi kurash, milliylikni qadrlash, mardlik, fidokorlik, ustozni e‘zozlash, keksalarga muomala, salbiy illatlardan yiroq yurish kabi odamiylik saboqlari ham berilgan ekan.

Bir tanishim “Jadidlarimiz kitoblari – ma‘naviyat xazinası”, deganida rosayam haq ekanini qalbdan tan olganimni-da yashirmayman. Ha, bu xazinani bog‘cha, maktab va mahalla, oilalarda keng o‘rganish, targ‘ib etishni yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Shu bilan birga, ular qalamiga mansub asarlarning har bir satridagi ma‘no-mazmunni uqib mutolaa qilsangiz, hammamizga sog‘lom fikrlilik, ahil yashash targ‘iboti, navqiron avlod uchun barkamollik yo‘lini jadidlarimiz allaqachon ko‘rsatib berishgan, degan xulosaga kelarkansiz.

Jahongir XOLIQOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a‘zosi

Dog biatlon – 2025



Chirchiq shahrida Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan vazirlik va idoralar mutaxassis kinologlari o'rtasida an'anaviy "Dog biatlon" musobaqasi beshinchi bor tashkil etildi. Musobaqa yildan yilga o'z qamrovi va ishtirokchilar son jihatdan kengayib, yurtimizda xizmat itlari tayyorgarligi va kinologlar malakasini oshirishda muhim tadbirga aylanib bormoqda.

KUCH, IRODA va hamkorlik namoyishi

Tadbirning rasmiy ochilish marosimida davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, harbiylar, sportchilar hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi. Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Vatan himoyasida jonfido qilgan mard o'g'lonlar xotirasi yodga olindi. Shu bilan birga, xizmat burchini sidqidildan ado etayotgan kinologlar faoliyati yuksak baholandi.

Musobaqa "Dog biatlon – yakka tartibda yugurish", "300 metrli to'siqlardan xizmat itlari bilan o'tish" va "Dog biatlon – estafeta" yo'nalishlarida tashkil etildi. Bellashuvlar davomida ishtirokchilar nafaqat jismoniy tayyorgarligini, balki xizmat itlari bilan uyg'un ishlash qobiliyati va epcilligini ham namoyish etdi. Yakkalik yugurish va o'q otish shartlarida yigitlar 3,2 km, qizlar esa 2,4 km masofani bosib o'tdi. Yigitlar o'rtasida Mudofaa vazirligi jamoasi a'zosi kichik serjant Samariddin Daminov 11 daqiqa-yu 45 soniya natija bilan rekord o'rnatdi. Bu yutuq tomoshabinlar tomonidan katta quvonch bilan qarshi olindi.

– Bu natija tasodif emas, yillar davomidagi mehnat samarasi, – deydi kichik serjant Samariddin Daminov. – Belgilangan masofani bosib o'tish davomida nafaqat yugurish tezligi, balki ruhiy barqarorlik, harakatdagi izchillik va to'g'ri nafas olish texnikasi katta ahamiyatga ega. Bu yutuq men uchun faqat shaxsiy muvaffaqiyat emas, balki jamoamizga bo'lgan ishonch, murabbiylarimning qo'llab-quvvatlashi va doimiy mashqlarning samarasidir.

Musobaqadagi raqiblar ham kuchli va yaxshi tayyorgarlik ko'rishgan edi, shuning uchun har bir daqiqa ahamiyatli bo'ldi. Albatta, bundan ham yuqori natijalarga erishish niyatidaman. Maqsadimiz – har doim oldinga intilish va Vatan sharafiga munosib himoya qilish.

Musobaqa jarayonida ishtirokchilar turli to'siqlardan o'tish, xizmat buyruqlarini aniq bajarish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ham o'z mahoratlarini ko'rsatdi.

Yakunlovchi natijalarga ko'ra, ayollar o'rtasida Mudofaa

vazirligi jamoasi 1-o'rinni, Milliy gvardiya ikkinchi, Mudofaa vazirligining ikkinchi jamoasi esa 3-o'rinni egalladi. Erkaklar o'rtasida ham Mudofaa vazirligi mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'ringa Milliy gvardiyasi qoshidagi Jamoat xavfsizligi universiteti jamoasi hamda uchinchi o'ringa Milliy gvardiya jamoasi sazovor bo'ldi.

– "300 metrli to'siqlardan xizmat itlari bilan o'tish" sharti bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritdim, – deydi kichik serjant Hurliqo Masharipova. – Bu men uchun juda ham quvonchli, biroq shu bilan birga katta mas'uliyat talab qiluvchi natija bo'ldi. Musobaqada ishtirok etgan barcha jamoalar juda jiddiy va puxta tayyorgarlik ko'rishgan, raqobat esa haqiqatan ham kuchli bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi yillarda kinologlar va xizmat itlari tayyorgarlik darajasida ancha o'sish kuzatilmoqda. Bu shartda g'alabaga erishishda eng muhim omillardan biri – xizmat iti bilan uyg'unlikda harakat qilish. Har bir to'siqni yengishda xizmat itimning doimiy diqqati, chapdastligi va men bilan bir maqsad yo'lida harakat qilishi hal qiluvchi rol o'ynadi. Biz har bir mashqda ishonch va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratganmiz. Qiyinchiliklarga qaramay, itim bilan birgalikda barcha sinovlarni mardonavor yengib o'tdik va erishilgan g'alaba biz uchun unutilmas tajriba bo'ldi. Oldinda yana ko'p imkoniyatlar bor va biz kelgusida bundan-da, yaxshiroq natijalarni qayd etishga intilmoqdamiz. Har bir musobaqa – yangi saboq, yangi maqsadlar sari qadam.

Bellashuv davomida "Eng ilg'or kinolog", "G'alabaga bo'lgan kuchli irodasi uchun" va "Eng abjir xizmat iti" kabi maxsus nominatsiyalar bo'yicha ham taqdirlash marosimlari bo'lib o'tdi. G'oliblarga kubok, medal va diplomlar topshirildi. Tadbir doirasida harbiylar va sportchilarning ko'rgazmali chiqishlar namoyish etilib, Vatanga sadoqatni ulug'lovchi kuy-qo'shiqlarga ulanib ketdi.

M a z k u r m u s o b a q a mutaxassis kinologlarning kasbiy mahoratlarini oshirish, ularning xizmat itlari bilan o'zaro ishonchli hamkorligini mustahkamlash, kuch tuzilmalari o'rtasida sog'lom raqobat va hamkorlik muhitini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, "Dog biatlon" tadbiri yuksak vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

Qadriyat

QATIM TORTGAN

barmoqlar sehri



Inson o'zida bor narsalarni ko'p ham qadrlayvermas ekan. Qachonki yo'qotganingda, yo'qotish xavfi paydo bo'lganida nechog'li qimmatga egaligini anglar ekan. Bejiz "Yo'qolgan pichoqning sopi oltindan bo'ladi", deyilmas ekan.

...O'tgan yili yozda, ta'tilda Shahrisabzdagi ota uyimda bo'ldim. Borishimdan hech kimni ogoh etmadim. Uzoq yo'ldan horib kelsam, ota hovlimiz, uylar bo'm-bo'sh, huvullagan. Qachonlardir bu hovli bolalar bilan to'la edi. Ari inidek to'zib yotardi. Uni ilk bor kimsasiz ko'rib, ko'nglim buzilib ketdi. Sig'may qoldim. Ko'chaga chiqdim. Yosh-yalangni tanimadim. Bir-bir qo'shnilarimizning darvozalariga termildim, oyamning hamsoyalari Xursand xola, Momoxol xolam, shaharlik bo'lgani uchun hamma tojik yanga deb chaqiradigan Munavvar xola, Sanobar yangam, Qo'ysinoy yangam yana ko'plar... Hech biri bu hayotda yo'q edi. Bir avlod almashinibdi...

Ular bilan meni bog'lagan birgina onam yoki ota hovlimmidi? O'ylasam, ko'p ekan, bizni bog'lovchi rishtalar. Hamsoyamiz Momoxol xolam sepim uchun quroq yostiqlar tikib bergan. Quroq yostiqlarim hamon bor, ichiga gulpaxta solingan, bir necha o'n yillar ichida hatto ranggi ham o'ngmadi. Xolamning

o'zi o'ngib, to'zib, bir parcha Vatanga aylanganiga ancha bo'ldi. Sanobar yangam rassom edi. Oq, qizil, sariq matolarning ichiga uch-to'rt rubl solib uyiga tashlab kelinardi. Turmushning bitmas-tuganmas tashvishlaridan ortib, kashta uchun gullar, naqshlar chizar edi. Qaysi gul, qaysi naqshlarga qanday rangli iplar ketishini ham yozib qo'yar edi. Yanganing o'ta injiq qaynonasi, ikki qaynisinglisi, o'nga yaqin bolalari bor edi. Ish qaynab yotadigan qishloq sharoitida bunday nafis ishlarga qanday ulgurgan ekan?!

Qo'ysinoy yangam tikuvchi edi. Keng ko'ylaklar tikardi. O'zi ona qadrdonlarimizning hammasi ham hunarmand bo'lgan ekan. Oldinlari chachvonsiz paranjiga o'xshab ketadigan boyjelaglar hunarmandlar bozorida ham sotilar edi. Keyinchalik eskilik sarqiti sifatida qaralib, sotilmaydigan, ayollar o'zlari tikib oladigan bo'ldi. Bora-bora ular ham urfdan qoldi. Chekka-chekka qishloqlarda hali ham saqlanib qolgan. Aslida juda qulay, boshingiz, yelkalaringizdan to'piqqacha tushib turadigan boyjelaglarda ayollar allaqanday xushqad, sirli, salobatli ko'rinar edi... qachonlardir.

SASSIZ DIL IZHORLARI

O'tgan yilning oxirlarida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Tadbirga to'xtalish fikridan yiroqmiz. Undagi bitta shart ilgak bilan ro'molcha to'qish edi. Ayollar shartni bajarayotganda bilim yurti boshlig'i polkovnik Shavkat Mamajonovning hayajon bilan o'tirgan joyidan turib kelib, "Yoshlikni yodga solar ekan, biz yoshligimizda, bizga shunday ro'molcha hadya qilishsa..." deya yoshlikning eng musaffo, beg'ubor pallasini eslagan edi. Qarang, qancha suvlar oqib o'tgan, ofitser ham umrning bir necha o'n yillarini ortda qoldirgan, ammo to'qilgan ro'molcha uni hamon hayajonga solyapti!

To'qilgan ro'molcha... U nimaning ramzi? Unda qanday hikmat bor?

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning shunday misralari bor:

*Quyosh ham falakda bamisli ro'yo,
U endi yondirmas. Yaltirar faqat.
Do'stlar, u ham endi quyoshmas aslo,
U olis yoshlikda qolgan muhabbat.*

To'qilgan ro'molcha yoshlikning ramzi edi. Rango-rang, bir sirli tovlanuvchi pistonlarda, oddiygina mulina iplarda ijod qilingan jimjimador to'qimalarda go'zal sevgi qissalari, nazokatga to'la izhori dillar, umidlar mujassam edi. Eng chiroyli va hashamli to'qilgan ro'molchani egasi ham yagona bo'lar edi. Muhabbat ro'molchasi. Uni to'qiyotgan qizni hech kuzatganmisiz? O'h-h-h, ko'zlarida paydo bo'lib qoladigan yolg'inlar, lab burchidan chiqishga hozir sirlar, dunyolarni unutgan holda ro'molcha naqshlariga nim tabassum bilan singib borayotgan suluvning o'zi bir DOSTONGa mengzardi.

Agar rassom bo'lganimda, og'ir dala ishlaridan so'ng salqin ariqlar labida tushlik qilayotgan qishloq qizlarini, chakki, ko'katlar, pomidor, bug'doy nonlardan iborat kamtarin dasturxonlarni, biroz tin olar-olmas darhol ro'molcha to'qishga, jiyaklar tikishga tushgan yuzlari zardoli kabi pishgan oftobjamollar rasmini chizgan bo'lar edim.

Endilar qizlar ro'molcha to'qimay qo'ydi. Bugun ularni band qiladigan narsalar ko'p. To'qilgan ro'molchalar yo'q, u bilan naqshlarga ingan sassiz izhorlar ham yo'q. Afsus...

Afsus, kultuvshak ham o'tmishda qoldi.

SIZ HAM KASHTA TIKKANMISIZ?

Yevropa madaniyatiga havas qilmaslik mumkin emas. Tan olish kerak, Yevropa ayollari ko'p narsalarda bizdan o'zib ketdi. Yo'q, o'tmishda qanday alloma ayollarimiz bo'lgan, deya e'tiroz bildirishingiz tabiiy. Ha, bo'lgan. O'tmishda bo'lgan, saroylarda bo'lgan, muruvvati, ishbilarmonligi bilan dunyoga ibrat bo'lgan poshshoqizlar o'tgan. Ammo hammaga ham boy xonadonlar, saroylarda dunyoga kelish nasib etmaydi.

Ularning o'tmishi va buguni bilan o'zimizni, to'g'rirog'i o'zimizni ko'p taqqoslayman. Va odamlar va madaniyatlar, an'analar o'ta keskin farq qilmasligiga amin bo'laman. Qanday qilib keskin farq qilmasligi mumkin? Tillar, dinlar farqli?! Shunday. Insoniyatni oila degan go'sha birlashtirib turadi. Oila bo'lib yashash, farzandlar ko'rish istagi birlashtiradi.

Ularda musiqa rivojlangan, deb havaslanamiz. Rassomchilik haddu a'losiga yetganini ta'kidlaymiz. Rost, aslida ham shunday-da.

Bizda... Bu borada biz ham birovdan kam emasmiz. Xalq hunarmandchiligi ishlarida musiqa yo'q deb o'ylaysizmi?! Qizlar tikkan kashtalar-chi?! Ularda aks etgan falsafani anglab yetganmisiz?! Ular oddiy bezaklar emas.

...Shu joyini men tikib qo'ya qolay, o'zi ozgina qolibdi, buzib qo'ymayman, bering, – deb onamning qo'lidagi yakuniga yetay deb qolgan kashtaga qo'l uzataman.

– Yo'q, shunday qoladi, bu dunyoga ishora, qizim, dunyoning chegarasi yo'q, dunyo ishlarining oxiri yo'q...

Onamning savodi yo'q, o'qish-yozishni bilmasdi, ammo hayot darsini obdon o'rgangan edi, Ona edi.

Kashta tikiladigan ipak iplarni o'zi tayyorlar edi. Ipak ipni zavod qabul qilmaydigan g'umbak (*dumaloq ko'rinishdagi*) pilladan olardi. O'zi eshardi, ranglarini tayyorlardi, bo'yardi. Qishloq oralab yuradigan Hasan jandachi degan odam bo'lardi. Eski-tuski narsalar, shisha idishlar olardi, o'miga o'tkir hidli, biroz achchiq saqich, sharlar berardi. Onam kukun ko'rinishidagi bo'yoqlarni shu jandachidan sotib olardi, oddiy qog'ozlarga o'ralgan, qanday rang ekani yozilgan bo'lardi. Tikilgan kashtalar hech o'ngib ketmasdi, bo'yoqlari yap-yangiday, hozirgina qo'ldan chiqqandek. Ular bugun... sandiqlarda qoldi.

Zardevol deyilardi, kashtaning bir turiga. Uyning shiftga tutash yeridan qoqilardi. Tekis tursa, barq urgan gullari yaqqolroq ko'rinadi, deb besh santimetr uzunlikda mayda munchoqlar qo'shib to'qilardi.

Kashta gullariga e'tibor berganmisiz? Ko'proq anor gullari tikiladi, anor tikiladi. Anor tiriklik ramzi, hayot ramzi!

Kashta tikishni har bir qiz bilishi kerak edi. Qayerdan boshlab, qayerda tugatishni bilish ham ilm edi.

Kashtalar yangi hayotga qadam qo'yayotgan qiz uchun jiddiy sinov edi. Siz kuyovning uyiga o'z qo'llaringiz bilan tikkan jiyaklar, pardalar, kengashalar va albatta, barchaga ko'z-ko'z qilinadigan, mahoratingizga, bekaligingizga baho beradigan kashtalar bilan borishingiz kerak bo'lardi.

Bo'y qizlar sirlashib kashta tikadigan ul go'zal damlar allaqachonlar edi, ortda qoldi, o'tmish ertaklariga, xotiralarga aylandi. Endi kashtalarga ehtiyojimiz yo'q.

Bugun istalgan naqsh, gullarni mashinalar tezlik bilan tikib beradi. Ular ham juda chiroyli. Biroq ayol qo'llarining harorati singib ketgan kashtalar bo'lakchada. Unda go'zal orzular, umidlar aks etgan, sevgi iforini his qilasz. Sekingina siypalasangiz, ixtiyorsiz o'sha oliiis yoshlikka, dugonalar davrasiga, hech kimga aytolmagan siringiz... o'sha shirin armonning xayollariga g'arq bo'lasiz.

Esiz... Nimani boy berganimizni anglayapman, ammo nimaning evaziga?!

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

Talabalar minbari

Bir yaqinimiz hushidan ketib qolganda darhol telefonni olib, "103" raqamlarini terdim. "Sekundlarda yetib boradi", dedi go'shakni ko'targan opa. Bemor yuragi urishdan to'xtayaptiki, va'da qilingan tibbiy brigadadan darak yo'q. Tevarakdagi hammada faqat bitta savol ko'ndalang: "Qachon kelishadi?" Ko'zimiz eshikka qadalgan.

Bemalol yordam

(“Tez yordam” tez kelsa edi)

Ammo “Tez yordam” tez kelmadi. Sababi esa bisyor, mashina yo'qligi, tirbandlik, noto'g'ri manzilga ketish, ba'zan oddiy befarqlik – bular tizimdagi og'riqli nuqtalar. Shaharda shu holat bo'lsa, qishloqlarda ahvolni tasavvur qilavering. Ushbu xizmatga ishi tushgan aksar yurtdoshlarimizning fikrini eshitsangiz, yurakni ezadi. “Onam hushidan ketdi, qo'ng'iroq qildik, yarim soatda keldi”, deydi biri.

Yaqinda o'zim bir voqeaning guvohi bo'ldim. Soat taxminan 22:30. Ko'p qavatli uylar ortida 20 yashar yigit jonsiz holatda yotgan edi. Ikki kishi uni ko'rib, darhol yordamga shoshildi, tez tibbiy yordamga qo'ng'iroq qildik. Ancha vaqt o'tib ketdi. Bir soatdan ko'proq vaqt o'tdi hamki, kelmadi. Operatorlar “Ko'rib beramiz, yuboramiz”, degancha qo'pollik bilan go'shakni o'chirib qo'ya qoldi. Fig'onimiz falakka o'rlaydi, qayta-qayta qilgan qo'ng'iroqlarimizni esa oxiriga yetmay, aloqani xotirjamgina uzib qo'yishdi. Bu beparvolikni qanday tushunish mumkin? Inson qadri shu qadarmi? Axir, ular inson hayotini saqlab qolish uchun qasamyod qilgan. Ammo bu qasamyod go'yo havoga aytilgandek.


Soat 00:30.

Nihoyat, “Tez yordam” mashinasi yetib keldi. Ammo... hamshira telefonda bemalol kim bilandi.

suhbatlashib turardi. Bemor o'spirin yigit bo'lgani uchun “Men ayol kishiman, sherigim ko'ryapti”, deb unga qarashni rad etdi. Sherigi ham aniq harakat qilmay, ketish payidan bo'ldi. Faqat atrofdagilar bosimi bilangina uni olib ketishga majbur bo'ldi.

Bir yarim soat davomida jonsiz yotgan bola ko'z o'ngimdan ketmadi. U ham kimdiming aziz jigargo'shasi, ehtimol, o'qish uchun kelgan musofir talabadir. Xulosa shuki, tez tibbiy yordamning kechikishi faqat xizmat obro'sining emas, balki bir jonning ham yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Iroda BOYMIRZAYEVA, O'zJOKU talabasi



“ISHBILARMON”LARGA ALDANMANG!

Ijtimoiy tarmoqlarga kirishimiz bilan bir marta bo'lsa-da, reklamalarga ko'zimiz tushgan. Ularning har to'rttasidan uchtasi farmatsevtika mahsulotlari turkumiga mansub. “Ozdiruvchi, bo'y o'stiruvchi va yoshartiruvchi” kabi sehirli so'zlar bilan kishini o'ziga jalb etadi.

Aksar ayollarni doimiy qiynab keladigan muammolardan biri – semizlik. Shuning uchun reklamalardagi rasmlarga va so'zlarga ishonib, osongina ozishni xohlaydi. Yaqinda bir reklamada ko'rdim: jismoniy harakat qilmay, maxsus preparat, kokteyllar bilan parhezisiz bir oyda 15 kg vazn yo'qotsa bo'larmish! Ol-a! Yaxshi, aytilganidek 15 kg vazn yo'qotildi ham deylik, ammo iste'mol qilingan dorilar boshqa organizmlarga zarar bermasligiga kim kafolat bera oladi? Mahsulotni reklama qiladigan “ishbilarmon”lar bozori chaqqon bo'lishi uchun “tesha tegmagan”, “qadog'i ochilmagan” so'zlardan foydalanadi. Ammo, iste'mol qilingan dorilar foyda bermasa, “O'z vaqtida va to'g'ri qabul qilmagansiz”, deya vaziyatdan chiqishga urinadi.

Bolalar uchun bo'y o'stiruvchi kalsiylar ham shular qatoridan joy olgan. Bir necha

oy oldin internet do'koniga sotuv operatori bo'lib ishga kirdim. Kompaniya menejerlari qo'limga ma'lum bir tartibdagi “qolibga solingan” so'zlarni berdi. 1-2 soatlik kuzatuv mobaynida operator ham, dorilar haqida konsultatsiya beruvchi mutaxassis ham bitta odam ekanini bildim. Avvaliga mijozlar reklamani ko'rib aloqaga chiqadi. Operatorlar ularni ro'yxatga olib, mutaxassislar qayta qo'ng'iroq qilishini aytadi. O'sha operator ma'lum vaqtdan so'ng mutaxassis shifokor “niqob”ini kiyib, boshqa mijozlarga qo'ng'iroq qiladi. Qog'ozdagi gaplarni ishonarli qilib tushuntiradi. Qarabsizki, tadbirkorning nayrangiga “chuv” tushgan sodda odamlar esa foydasiz dorilarni sotib oladi.

Iste'mol qilingan dorilar avvaliga ichaklardan o'tib, oshqozonga tushadi. U yerda parchalanib, boshqa a'zolarga

so'rilishni boshlaydi. Shu tariqa butun organizm zarar ko'radi.

Ozishda yordam berayotgan “Fatzorb” nomli tabletkaning tarkibida sog'liq uchun xavfli sibutramin moddasi borligi aniqlangan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi 818-sonli qaroriga ko'ra, u kuchli ta'sir qiluvchi modda hisoblanadi. O'zbekiston hududida sotish va sotib olish taqiqlangan. Shunga qaramasdan hali ham soxta shifokorlar va biznesmenlar tomonidan reklamasi olib tashlanmagan.

Inson salomatligi – eng bebaho ne'mat. Shunday ekan, qimmatli sog'lig'ingizni arzon va sifatsiz mahsulotlar evaziga yo'qotmang! Aldanmang.

Zulfizar SAIDAHMADOVA, O'zDJTU talabasi

Farosat inson bilan birga tug'ilmaydi yoki bozorda sotilmaydi. Xuddi Hoshimjon singari qofiya, turoq sotib olmoqchi bo'lganday, bozorga borishning keragi yo'q. Bu yillar mobaynida orttirib boriladi.

FAROSAT narxi qancha?

Rostdan farosat bozorda sotilganida nima bo'lardi? Biroz fikrlab ko'raylik-chi?

Xo'sh, sotuvchilar boyvachcha bo'lib, cho'ntaklari kelishgan, hammaning ko'ngliga yoqadigan Benjamin Franklin amakiga to'lib ketadi. Sotib oluvchilar esa pul topib, bozorga qatnash bilan ovora bo'lsa kerak. Agar bozordagi farosat sotilmay, sifati buzilsa-chi? Narxiyam sifatiga yarasha bo'lar, ehtimol.

Oldinlari odamlar bir oyog'i yerda deb aytilsa, endi bir oyog'i bozorda deb gapirishadi. Ota o'g'li, qizi yoki ayoliga

“Qayerga?” deb so'rasa, “Bozorga ketyapman, farosatim tugab qoldi, olib kelay”, desa, qiziq-a?! Yoki ota-onalar farzandlarining tug'ilgan kuniga iPhone 16 telefonini 26 million 800 mingga olib bermay, farosat sovg'a qilarmidi. Farzandlar ham shunday telefon talab qilmasmidi. Tug'ilgan kun egalari qo'llariga tort o'rniga bejirim qutichaga solingan farosat olgan bo'lar edi. Insonning sabr kosasini to'ldiradigan kutish-kuttirishlar kamayib, hamma o'z o'mida shifoxona, bank yoki do'konda tartibni

saqlar edi. Kimdir birovning navbatini olib qo'ymasdi. Tuzi, maza-matrasasi yo'q gap-so'zlarni aytmasdi. Shirinso'z, xushfe'l bo'ladi. Jamiyatimizda tilidan bol tomadigan shaxslar ko'payadi. Yoshlar avtobus va metroda bezbetlarcha o'tirmasdan, qulaygina joylarini shirinsuxan opaning gapiga kirib, yoshi kattalarga bo'shatib beradi.

“Eshikni yopib yuring!” deya katta harflar bilan yozilgan jumlaning o'qib ham, ochiq qoldirib ketish uchun qay darajada farosat kerak?! Chiqindini tashlaydiganlarning farosati yarimta bo'lmasa, istalgan joyga uloqtirib ketmaydi. Ayollar eshikdan kirayotganda qaddi-qomati o'ziga yarashib turadigan barvasta yigitlar tomoshabin bo'lib qarab turmay, eshiklarni ochib beradi. Etikasi ancha rivojlanganida zinadan chiqayotgan yo tushayotgan qizlarga hurmat bilan yo'l

berib, keyin o'zlari harakatlanarmidi?! Axir, dinimizda ham ayol kishini hurmat va e'zozlash joizligi keltirilgan. Farosat yosh, jins tanlamasligini shundan bilib olsa bo'ladi.

Bu orqali yurtimizni hammaning havasi keladigan, tildan tushirmay maqtaydigan davlatlar qatoriga kiritar edik. Maktab va universitetda talaba-yu, o'quvchilar farosatini ishga solib, birvarakayiga mukammal bilim egallar edi. Voybo', bularning adog'i yo'q. Inson farosatning yuqori cho'qqisiga chiqsa, qanday yaxshi bo'lar ekan-a? Ne ajabki, buni anglab yetish uchun ham farosat kerak. Asli inson zotiga farosatli bo'lish uchun ko'p narsa kerak emas. Shunchaki, kengroq mulohaza yuritib, aqlni ishlatsak kifoya.

Dilafuzr BEKMIRZAYEVA, O'zJOKU talabasi

Yaponiyalik rejissyor tomonidan 1987-yili suratga olingan “Hatiko” filmi bilsangiz kerak. Unda asosiy qahramon – “Hatiko” laqabli itning vafosi juda ta'sirli tasvirlangan. Sadoqat tuyg'usi hayvon, jonivorlar uchun begona emasligi shu it obrazida chiroyli talqin etilgan. Yaponiyada shu asosda sodiqlik ramzi sifatida itga haykal ham o'rnatilgan. Lekin biz insonlarga bu xislat begona emasligini anglasak-da, qayta-qayta xoinlik, xiyonat qilaveramiz.

SODIQLIK, QAYERDASAN?

Sodiqlik, fidoyilik, halollik, vafodorlik kabi insonning ziynati bo'lgan go'zal xislatlar bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtga kelib insonlar o'rtasidagi ana shu samimiyatning yo'qolishida zamonni aybdor qiladi. Zamon o'sha-o'sha o'zimiz o'zgardik xolos.

Yaqinda bir kishi bilan suhbat qildim: “Boshimga kulfat tushdi, menga moddiy yordam juda zarur edi, uni so'rab, yaqinlarim ichida sarosar kezdin. Taassufki, biror ko'mak qo'li uzatilmadi, ammo ishlarim avj pallada ular qancha edi. Umrubod manfaatsiz qayg'uradigan ota-onamgina meni qo'lladi. Topganim shu azizlarim bo'ldi, xolos. Ushbu vaziyat bahonasida ko'plab do'stlarim orasidan kim sodiq ekanini bilib oldim. Hali

ishlarim zo'r bo'lib ketsa, yana “do'st” sotib olaman ekan-da”, dedi kuyinib. Lekin bu sotib olingan sodiqlikni kimga keragi bor, deysiz.

Hozirgi kunda o'z qo'rg'oni, oilasi, yaqinlariga xiyonat qiluvchilar, manfaat uchun yoningizda yuradiganlar oramizda topiladi. Bu yo'lning oxiri gadolik, zorlik. Har bir ota-ona farzandlarini birovning haqqidan qo'rqadigan, halol, sodiq, vafodor qilib tarbiyalashi kerak. Shunda kelgusi avlod sodiqlik izlab sarson bo'lmaydi.

G'iyosiddin URALOV, O'zJOKU talabasi

Harbiy sport o'yinlari

XORAZMNING “Shunqorlar”i aniqlandi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun “Shunqorlar” harbiy sport o'yinlarining Xorazm viloyati bosqichi o'tkazildi.



Unda viloyatning tuman va shaharlaridagi umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar va talabalardan tashkil topgan 12 ta jamoa ishtirok etdi.

Do'stona va murosasiz kechgan bahslarda Hazorasp tumani yoshlaridan iborat “Sulton Jaloliddin” jamoasining qo'li baland kelib, 1-o'rinni egalladi. Ushbu jamoa endi iyun oyida o'tkaziladigan o'yinlarning final bosqichida viloyat sha'nini himoya qiladi. 2-o'rin Xonqa tumanining “Vatanparvarlar” jamoasiga, 3-o'rin esa Urganch shahrining “Jaloliddin izdoshlari” jamoasiga nasib etdi.

E'zoz

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti xodimlari respublikamizning turli burchaklarida istiqomat qilayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari holidan xabar oldi.



“VATANPARVAR” TASHKILOTI faxriylarni yo'qladi

Tashkilotning Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Boyovut tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi Uskan ota Hojimanov xonadoniga tashrif buyurdi. Tashrifdan benihoya mamnun bo'lgan 101 yoshli faxriy yo'qlovchilarga xotiralarini so'zlab berdi.

Otaxon, ayniqsa farzandlari, nevara-yu chevaralari u bilan faxrlanishidan har doim xursand ekanini bildirdi. Suhbat davomida tez-tez hozirgi tinchlik va dorilamon zamonda xalqimiz shukronalik bilan yashashi kerakligini ta'kidladi.

Tashkilotning Buxoro viloyati kengashi xodimlari va sportchilari shaharning Shofirkon ko'chasida yashovchi Norboy ota Qarshiyevning xonadonida bo'ldi. 100 yoshni qarshi olgan otaxonning bardamligi va hamon teran fikrlashi yo'qlovchilarni xursand qildi. O'z xotiralarini yig'ilganlar bilan baham ko'rgan Norboy Qarshiyev yoshligidan shaxmat va shashka o'ynashni yaxshi ko'rishini aytdi.

“Vatanparvar” tashkiloti viloyat kengashi raisi Rustam Bayozov fursatni boy bermasdan otaxon bilan shashka o'ynashga kirishib ketdi. Qizg'in va maroqli uchrashuvdan so'ng Norboy ota kelganlarga minnatdorlik bildirdi va yurtimizda abadiy tinchlik-xotirjamlik, to'kin-sochinlik bo'lishini so'rab, duo qildi.



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi
“Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

O'rganishlar

Ko'rsatmalar berildi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Andijon viloyatida o'rganishlar olib borildi.

Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlardan birida va viloyatning Milliy gvardiya boshqarmasida xizmatni o'tash uchun yaratilgan sharoitlar, tibbiy ta'minot va tibbiy xizmat ko'rsatish ahvoli, navbatchi va tezkor guruhlar, texnikalar shayligi, monitoring markazi, kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan tezkor axborot almashinuvi hamda faoliyatga doir masalalar o'rganildi.

Jarayonda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning, jumladan korrupsiyaviy holatlarning oldini olish borasidagi ishlar natijalariga alohida e'tibor qaratildi.

Energiya tejamkorligini ta'minlash, byudjet mablag'lari iqtisodiy, harbiylar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasi, yoshlarni vatanparvarlik, qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, ular orasida kitobxonlik va sportni keng ommalashtirish yuzasidan

olib borilayotgan tadbirlarga ahamiyat berildi.

Shaxsiy tarkib, jumladan safga yaqinda qo'shilgan askarlar bilan muloqotlar o'tkazilib, ularning muammolari o'rganildi.

Yakunda o'rganilgan masalalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Adliya polkovnigi
Ilhom MAMATQULOV,
Andijon harbiy prokurori

Sayohat

Ochiq eshiklar kuni

Namangan harbiy prokuraturasida ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.

Dasrlab faxriylar va o'quvchi-yoshlar ishtirokida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi. So'ngra mehmonlar harbiy prokuraturadagi sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, prokuratura, shu jumladan harbiy prokuratura organlarining shakllanish tarixi, so'nggi yillarda tizimda amalga oshirilgan islohotlar va faoliyatda olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar berildi.

Tadbirlar viloyat markazidagi “Vatanparvarlar bog'i”da davom etdi. Unda Vatanimiz tinchligi yo'lida o'z xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan 14 nafar o'g'lonning qahramonligi xususida so'z bordi. Tadbirlar barchada katta taassurot qoldirdi.

Adliya kapitani
Muhammadsiddiq ODILJANOV,
Namangan harbiy prokuraturasi
katta tergovchisi

Ehtirom

Uch avlod uchrashuvi

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lida jasorat ko'rsatgan insonlar xotirasi mangu qalbimizda, hayot bo'lganlari hamisha el-yurt ardog'ida.

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ana shunday fidoyilar yod etilib, umrguzaronlik qilayotganlari yo'qlandi, ular ishtirokida uchrashuvlar va boshqa qator tadbirlar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida ham tizim faxriylari ishtirokida uch avlod uchrashuvi bo'lib o'tdi. Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan tadbirda harbiy prokuratura xodimlari, ularning oila a'zolari, tizimga, xizmatga qabul qilinib, ilk bor lavozimga tayinlangan yosh xodimlar ishtirok etdi.

So'z olganlar tomonidan Vatanimiz tinchligi yo'lida xizmat burchini ado etish chog'ida halok bo'lganlar yorqin xotirasi yodga olindi. Bugun keksalik gashtini surayotgan faxriylarga ehtirom ko'rsatilib, ularning ibratli hayot yo'llari e'tirof etildi.

Jarayonda ayni sanada tabarruk 63 yoshini nishonlayotgan faxriy Alibek Chegebayev ham qutlandi.

Shuningdek, harbiy prokuratura xodimlari farzandlariga oliygohlarga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar tantanali ravishda topshirildi.

Bir guruh xodimlarga navbatdagi harbiy unvonlar topshirilib, 2024-yil yakuni bo'yicha kasbiy tanlov hamda xodimlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori sovrini uchun o'tkazilgan shaxmat-shashka musobaqasining g'olib va sovrindorlari taqdirlandi.

Adliya polkovnigi Oybek YULBARSOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Inson qadri uchun

FAXRIYLAR VA YOSHLAR suhbati

Termiz harbiy prokuraturasi va Janubiy operativ qo'mondonlik hamkorligida harbiy qismlarning birida faxriylar va o'quvchi-yoshlar ishtirokida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi.

So'z olganlar vatanparvarlik tuyg'usining bemisl qudratini e'tirof etib, Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lida jasorat ko'rsatgan ajdodlarimizning qahramonliklarini e'tirof etdi.

Tadbir davomida yoshlar harbiy qism kutubxonasi, muzey va harbiy aslahalar ko'rgazmasi bilan yaqindan tanishdi.

So'ngra Termiz shahrida istiqomat qiluvchi I guruh nogironi, nafaqadagi harbiy xizmatchi Shuhrat Qayumov holidan xabar olindi.

Adliya podpolkovnigi
A'zamjon ALMARDONOV,
Termiz harbiy prokurorining o'rinbosari

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

QULAY IMKONIYATLAR YARATILDI

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Kitob tumani o‘quv sport-texnika klubida yoshlar bandligini ta’minlash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik targ‘iboti hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.



yaqinda 9-may – Xotira va qadrlash
kuni munosabati bilan tuman hokimligi,
mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari
agentligi, Ma'naviyat va targ'ibot
markazi tuman bo'limlari bilan
hamkorlikda "Vatan ravnaqi, tinchligi
va himoyasi yo'lidagi qahramonlik
unutilmaydi!" mavzusidagi ma'naviy-
ma'rifiy tadbir o'tkazilgani ham shular
sirasidan. Tashkil etilayotgan bunday
tadbirlarda ishtirokchilarga boy hayotiy
tajribaga ega nuroniylar va faxriylar
Ikkinchi jahon urushining sitamli
xotiralaridan so'zlab berdi. Keksav avlod
vakillari har birimiz Vatan ravnaqiga
sidqidildan xizmat qilishimiz, uning
tinchligi va osoyishtaligini ko'z
qorachig'imizdek asrashimiz lozimligini
ta'kidlashdi. Albatta, bu kabi tadbirlar
natijasida yoshlar qalbida harbiy-
vatandparvarlik tuyg'ulari jo'sh urmoqda.

Joriy yilning o'tgan oylari davomida o'quv sport-texnika klubi tomonidan 3 ta tuman hamda klub musobaqasi o'tkazildi. Bu musobaqalarda yuz nafardan ortiq o'quvchi-vosh qatnashdi.



Yuqorida ta'kidlab
o'tganimizdek, shu
kunlarda klubda bo'lajak
haydovchilarning
namunali o'quvini tashkil
etish yuzasidan bir
qancha amaliy ishlar
qilinmoqda. Shu bois
endilikda haydovchilar
tayyorlash sifati va
samaradorligini bir necha
barabar oshirish ko'zda
tutilgan. Shu maqsadda
"Onix" va "Foton" kabi
zamonaviy rusumdagi o'quv
avtomobillari olib kelindi. Bu esa,
o'z navbatida, O'STKda haydovchilar
tayyorlash va qayta tayyorlashda qulay
imkoniyatlarni yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shu kunlarda mazkur tuman O'STK tomonidan olib borilayotgan ishlar va o'tkazilayotgan tadbirlar tuman yoshlarining kamolotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Ayni paytda zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan qayta jihozlangan mazkur klubda “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE”, “D” toifali avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda traktorchilar tayyorlash borasida samaradorlikka erishilmoqda.

Shuningdek, ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti yo'nalishi bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ham jismonan, ham ma'an sog'lom, har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportni umumxalq harakatiga aylantirish, uyushmagan yoshlarni sport to'garaklariga jalb qilish yuzasidan muayyan natijalarga erishilmoqda.

– Tumanda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida to‘rtta

to'garak va seksiyalar tashkil etilgan, –
deydi O'STK boshlig'i Sharif Temirov.
– Bu to'garaklarda bir nechta tajribali
sport murabbiylari faoliyat ko'rsatmoqda.
100 nafarga yaqin shug'ullanuvchi
sportning "Havo miltig'idan o'q otish",
"Radioaloqa", "Karting", "Avtosport"
turlari bo'yicha muntazam shug'ullanib

boradi. Tuman, viloyat, respublika hamda xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan musobaqalarda faol ishtirok etgan kitoblik sportchilar sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritmoqda.

Bundan tashqari, klubda ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar o'tkazishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan,



Tibbiyot

TO'G'RI OVQATLANISH

— SALOMATLIK GAROVI



Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, inson sog'lig'ining 60 foizi turmush tarziga bog'liq ekan. Sog'lom turmush tarzining asosiy tamoyillaridan biri esa to'g'ri ovqatlanish hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanish jismoniy bardoshlilikni oshirish, immun tizimni mustahkamlash, aqliy faoliyatning rivojlanishi, moddalar almashinuvining tezlashishi, vaqti-vaqti bilan ro'y beradigan hayotimizdagi turli stresslarga bardoshlilikni oshirish kabi muhim jarayonlarni tartibli kechishini ta'minlaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan sog'lom ovqatlanish piramidasi asosini jismoniy harakatlar darajasi va tana vazn nazorati tashkil etadigan bo'lsa, keyingi bosqichi ho'l meva va sabzavotlar, boshqililar, dukkaklilar, kartoshka, yorma, guruch hamda non mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Undan keyingi bosqichlarni esa go'sht, baliq, tovuq, pishloq, sut mahsulotlari, sariyog', tuxum kabilar tashkil etib, so'nggi bosqich, ya'ni piramida cho'qqisi qandolat mahsulotlari, shakar, tuz va yog'lar bilan yakunlanadi.

Ovqatni kunning ma'lum vaqtida iste'mol qilish – bu shartli reflekslar hosil bo'lishiga imkon yaratadi hamda, o'z navbatida, organizmni ovqat qabul qilishga tayyorlaydi. Nonushta va tushlik, kechki ovqatlar oralig'idagi vaqt 5-6 soatni tashkil etishi kerak. Ko'pchilik insonlarda uyqudan oldin ovqatlanish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Uyqudan oldin taom iste'mol qilish, uyquga ketishda bir qancha noqulayliklarga sabab bo'libgina qolmay, ovqat hazm qilish a'zolari faoliyatiga ham katta zarar ko'rsatadi. Afsuski, hozirgi kunda ko'pchilik insonlar bunga odatlangan. Uyqudan kamida 2-3 soat oldin taom qabul qilish, albatta, tez hazm bo'luvchi mahsulotlardan tayyorlangan taomlar yoki qatiq ichish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kunda 4 marotaba ovqatlanishda uning taxminan 25 foizini birinchi nonushtaga, 15 foizi ikkinchi nonushtaga, 35 foizi tushlik va 25 foizi kechki ovqatga to'g'ri kelishi kerak. Shunda kunlik iste'mol qiladigan ovqatlarning to'g'ri taqsimlanishi va ovqat hazm qilish a'zolarining me'yorida ishlashi normalashadi.

Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining qariyb 45 foizi semizlikdan aziyat chekishi mumkin. Bu global muammoga faqat sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanish bilan yechim topish mumkin.

Mutaxassislar tavsiyasiga muvofiq, kunlik energetik qiymatining 25 foizi oqsillar, 25 foizi yog'lar va 50 foizi uglevodlar tomonidan ta'minlanishi kerak.

Agar iste'mol qilayotgan ratsionimizdagi oziq-ovqatlarimiz tarkibida transyog' va hayvonot yog'lari miqdori ortiqcha bo'lsa, aterosklerozga – qontomirlar devorining torayishi, devorlarining mo'rtlashishi oqibatida turli qon aylanish tizimi kasalliklari, uglevodlar, jumladan un, qand va tarkibida ko'p miqdorda uglevodlar saqlovchi mahsulotlarni ortiqcha iste'mol qilish qand kasalligi, artritar, qabziyat va rak kasalliklariga, oqsilga boy go'sht mahsulotlarini ko'p iste'mol qilish esa qonda azot birikmalari konsentratsiyasining oshishiga va oqibatda podagra va buyrak kasalliklariga sabab bo'ladi.

Shakar iste'molini ham cheklab, uning o'rniga sifatli uglevodlarni iste'mol qilish foydali hisoblanadi. Shu sababli har bir inson o'z organizmi uchun zarur uglevodlarni, birinchi navbatda, don, sabzavotlar, ho'l mevalar va dukkakli mahsulotlardan olishi kerak.

Xususan, o'rta yoshli va katta yoshdagi insonlar kuniga kamida 400 gr meva va sabzavot tanovul qilishi maqsadga muvofiq.

Bolalar va o'smirlarning kunlik meva va sabzavotlar iste'moli esa quyidagi miqdorda bo'lishi tavsiya etiladi:

- 2-5 yosh – kamida 250 gr;
- 6-9 yosh – kamida 350 gr;
- 10 yosh va undan kattalar – kamida 400 gr.

Sog'lom ovqatlanish orqali quyidagi kasalliklar kamayishiga erishiladi: yurak qontomir kasalliklari, onkologik kasalliklar, qandli diabet, surunkali nafas olish yo'llari kasalliklari.

Xalqimiz "ilik uzildi" deb ataydigan bahorning ilk kunlarida inson organizmi vitaminlarga, mikro va makroelementlarga muhtoj bo'lib qoladi. Chunki qish mavsumida yangi, xilma-xil meva va sabzavotlarni kam iste'mol qilinishi natijasida vitaminlar kamayishi va quyosh nurlarining yetishmasligi, kamharakatlilik, shamollash kasalliklari tufayli organizm zaiflashadi. Bu qiyofamiz va kayfiyatimizda o'z aksini topadi, terimiz rangi nursiz va po'st tashlaydi, sochlar mo'rtlashadi, tanamizda ortiqcha vazn paydo bo'ladi. To'g'ri, hozirgi vaqtda bozorlarimizda yil davomida yangi, xilma-xil meva va sabzavotlar uzilmaydi, lekin ular birinchidan, qish mavsumida nisbatan qimmat, ikkinchidan, issiqxonalarda

yetishtirilgani sababli quyosh nuriga to'yinmagan, shuningdek kimyoviy moddalar hisobiga yetishtirilgan bo'ladi, shuning uchun xalqimiz doim ham sevib iste'mol qilavermaydi. Konservlangan mahsulotlar va quritilgan mevalar esa ko'pincha organizmga foydali moddalarni saqlab qola olmaydi.

Mart oyining boshlarida ko'pchilik insonlar o'zlarini yaxshi his etmaydi, bundan tashqari, kayfiyat ham "ob-havo"ga o'xshab har kuni o'zgarib turadi. Har xil virus va bakteriyalarga qarshi kurashishga zaiflashgan organizmning kuchi yetmaydi.

Shu sababli bahor kunlari kelishi bilan ovqatlanish ratsionimizni qayta ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Sovuq kunlarda organizmni issiq tutish uchun talab qilingan yuqori quvvatli ovqatlarga endi ehtiyoj oldingidek bo'lmaydi. Kunlik ratsionimizga vitamin va boshqa foydali moddalarga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini albatta qo'shishimiz kerak. Ratsion o'zgargandan so'ng uning ta'siri bir-ikki kun ichida sezilmaydi, lekin bir hafta va undan so'ng charchoq alomatlari kamayganini va kuchimizga kuch qo'shilganini seza boshlaymiz.

Shuning uchun bu davrda quyidagi vitaminlarga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz kerak:

- A vitamini – teri holatini yaxshilash va bahor oylarida juda ko'p kuzatiladigan nafas olish a'zolarini shamollash kasalliklaridan himoya qilish uchun juda muhim. A vitaminiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga quyidagilar kiradi: sabzi, qovoq, o'rik (*turshak*), ismaloq, baliq, baliq moyi, tuxum, sariyog', sut (*yog'liligi 3,2 foiz*), yog'li tvorog, smetana (*yog'liligi 30 foiz*), pishloq, mol jigari, quyon go'shti;
- C vitamini – immunitetni oshirish va milk mustahkamligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. C vitaminiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari: na'matak (*quruq*), bulg'or qalampiri, kashnich, no'xat, kartoshka, karam (*shu jumladan, tuzlangan*), gulkaram, pomidor, olma, ananas, kivi, qulupnay, apelsin, mandarin, limon va sitrus mevalar sharbatlari;
- D vitamini – kalsiy moddasini o'zlashtirishda ishtirok etadi, tirnoq, soch, suyak to'qimalarini tiklanishi uchun muhim. Har oy haftasiga kamida uch marta 10-15 daqiqadan tik tushayotgan quyosh

nurlari ostida turish (*yuz va qo'llar ochiq bo'lishi kerak*) terida yetarlicha D vitamin sintezlanishini ta'minlaydi. D vitaminiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari: baliq, treska jigari, osyotr ikراسi, sariyog', tuxum, smetana, qaymoq;

E vitamini – hayotiy quvvat berish bilan birga muskullarning tiklanishida ishtirok etadi. E vitaminiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari: o'simlik yog'lari (*kungaboqar, zaytun, jo'xori, soya, paxta, raps*), yong'oqlar (*bodom, yong'oq, o'rmon yong'og'i, yeryong'oq*), kungaboqar urug'i, suli yormasi, ikkinchi navli bug'doy unidan non, arpa noni, makaronlar, loviya, qovurilgan kartoshka – chipsi, ismaloq, kashnich (*oshko'ki*);

● B vitamini – to'qimalarni kislorod bilan ta'minlashda ishtirok etadi, charchoqni yengishga yordam beradi, asab tizimini yaxshilaydi.

B vitaminlari guruhiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari:

● B₁ vitamini – kungaboqar urug'i, kedr yong'og'i, pista, bodom, keshyu yong'og'i, non va non mahsulotlari (*ayniqsa, yirik tortilgan undan*), yormalar, baliq, mol jigari, kartoshka, gulkaram, yashil no'xat, loviya, soya mahsulotlari;

● B₂ vitamini – pishloq, tvorog, tuxum, sut va suyuq sut mahsulotlari, suli yormasi, baliq, go'sht, mol jigari, parranda go'shti;

● B₃ vitamini – kartoshka, yormalar, suli bodroqlari, non mahsulotlari, parranda go'shti, mol go'shti, mol jigari, baliq, tuxum, yong'oqlar, banan, ismaloq, olcha, jo'xori;

● B₁₂ vitamini – sut mahsulotlari, tvorog, pishloq, tuxum, parranda go'shti, baliq, mol go'shti, jigari, buyrak.

Ovqatlanish organizmni hayotiy zarur bo'lgan vitaminlar va mineral moddalar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Buning uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak:

● ko'proq meva iste'mol qilishga harakat qiling. Har kuni eng kamida 1 dona olma, banan, apelsin mevalarini iste'mol qilishni odat qiling;

● har kuni sabzavotlar va ko'katli salatlarini iste'mol qilish;

● oqsilga boy bo'lgan mahsulotlarni (*go'sht, sut mahsulotlari va b.*) iste'mol qiling;

● o'simlik yog'larini esdan chiqarmang, salatlar uchun qo'llang;

● ratsioningizga ko'katlarni (*ko'kpuyoz, ukrop, petrushka*) qo'shing;

● tez-tez, kam-kamdan ovqatlaning.

Sabzavotlar, oshko'klar va mevalar kundalik iste'molning majburiy o'simlik mahsulotlariga mansubdir. Ular kundalik ratsionda muntazam tushib turish bilan birga, almashtirib bo'lmaydigan tarkibga ega oziq-ovqat manbai bo'lib, oshqozon-ichak yo'llarining ishini tabiiy ravishda yanada yaxshilaydi va o'z tarkibidagi vitaminlar, mineral moddalar, ovqat tolalari, organik kislotalar va boshqa biologik faol birikmalar hisobidan ovqat hazm bo'lishining me'yorini saqlab turadi.

Sabzavot va mevalar oshqozon-ichak yo'llarining normal faoliyatini ta'minlaydi, fermentlar va o't suyuqligi ishlab chiqarilishi va ajralishini kuchaytiradi, ichaklarning me'yoriy mikroflorasini saqlab turilishida ishtirok etadi.

Tibbiy xizmat podpolkovnigi

M. SHAROPOV,

Qarshi sanitariya-epidemiologiya nazorati bo'limi boshlig'i

Esse

ILDIZINGIZ CHUQURMI?



Aka, mendan uchuvchi chiqarmikan? Bu haqda ko'p o'ylayman. Keyin tasavvur qilaman: moviy gumbaz uzra parvoz etayotgan vertolyot va samolyotlarning boshqaruvida o'tirib, bulutlar oralab suzib ketyapman. Bir o'zim, hech kimsiz. Bolalikdan shundayman. Vaqt o'tib, boshqa sohaga mehr qo'yaman, degandim, ammo unday bo'lmadi.

Xullas, shu armon bo'lib qolyapti-da. Darvoqe, armon deganda, bir voqea esimga tushdi. Internet tarmoqlarida barchani hayratga solgan 115 yoshli otaxon, esingizdami? Haa, qashqadaryolik Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Ro'ziboy Sattorov. Shu deyman, orzu qilish faqat ma'lum bir yoshga xos emas ekan-a? Bo'lmasa, asr bilan yuzlashib, hatto undan ham sakrab o'tgan inson samolyotda bulutlar uzra parvoz etishga jazm qilarmidi? Lekin bu ishga qo'l urib, bobo ko'p narsani isbotladi, armonlari ushaldi. Ba'zan odam tavakkal ham qilish kerak ekan, aka. Shoshmang, men boboning o'sha mardligini aytmoqchi emasman. Chunki shundoq ham u insonning nimalarga qodir ekanini butun dunyo biladi. U allaqachon amalda isbotlab qo'ygan barchasini. Yozsam kitob, so'zlasam umr kamlik qiladi.

Qisqasi, katta leytenant Akbar Kamolov bor-ku. Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning matbuot xizmati boshlig'i. Shu yigit o'sha bobo bilan bir supada o'tirib, gurunglashgan. O'z tilidan eshitdim. So'zma-so'z gaplarini keltiraman. Faqat siz jim eshiting, xo'pmi?

– Men otani ko'rganimda dunyoning boshini topgandek bo'ldim, – dedi Akbar. Uning ko'zlari o'ychan boqardi.

Aytgancha, Kamolov ijod odami. Adabiyotni juda sevadi. Shuning uchunmi, biror bir voqea haqida so'zlasa, barcha tafsilotlari, suhbatdoshining xatti-harakatlarini go'zal o'xshatishlar bilan bayon etadi. Baribir qalam ahlidan-da. Aytgancha, otaxon haqida gaplashayotgandik, a. Keyinmi?

– Boboga ko'zim tushdi-yu, nafasim bo'g'zimga tiqildi, – dedi Kamolov. Hamon o'sha-o'sha ko'rinishda edi. – Qalbimda mudrab yotgan og'ir toshni nigohlari bilan bir zarba berib, chilparchin qilib tashladi. 115 yoshli inson hayotga talpinib yashayapti. To'xtash, elchi kelsin-u, jonimni olsin, demayapti. Aksincha, avlodimning sonini oshishini ko'ray, deb tirishmoqda. Unga qarar ekanman, xayolimda ayni navqiron yoshda, kuch-u g'ayratga to'lgan yigit-qizlarni bo'lmag'ur tuyg'ularga berilib, omonat jonga, boshqacha qilib aytganda, ruhga xiyonat qilib kelayotganidan achinib ketdim. Nega bugun aksar yoshlar tushkun kayfiyatda? Ularni otaxon bilan uchrashtirish kerak, degan xayol miyamda charx urdi. Xullas, biz, ya'ni Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugdagi bir guruh harbiy xizmatchilar bilan o'tmish bilan yuzlashish uchun Ro'ziboy boboning xonadoniga bordik.



Do'stim ishonimga, boboning ko'ngli haqiqatan ham daryo ekan. Suhbatlashyapmiz-u, ikki ko'zim unda. Chunki bu yerda aytilayotgan so'zlar kecha bilan bugun o'rtasidagi buzilmas ko'priikka o'xshardi. Negadir ko'p yillik istaklarimning ildizi, boshlanishini topgandek qalbim quvnay boshladi. Bobomni esladim.

– Bobolarning begonasi bo'lmaydi, – dedim o'zimcha, muhim sirni fosh etgandek. – Zotan, hammamiz yagona odam farzandlarimiz.

Akbar indamadi. Nazarimda, u gapimni eshitmaganga oldi. So'ng yana Ro'ziboy Sattorovning hikoyasini ayta boshladi. – Inson ba'zan isyonkor bo'lib qoladi, – dedi bobo. So'zlari titrab chiqyotgan edi. – Nega undayligini o'zi ham bilmaydi. Oxirida yosh bilan bog'lashadi. Aslida bu xato. Chunki hammasi tarbiyaga borib taqaladi. Boshida yo'lni to'g'ri ko'rsatish, maqsadlarni aniqlab berish kerak. O'shanda rahmat eshigidan kirasiz. Ehtimol, xatolar insonni tik ushlab turar. Ammo bola ham issiq suvni bir ho'plagach, qayta unga yaqinlashmaydi. Bu uning instinkti.

Bobo gapirishdan to'xtab, ko'zlarini ohista yumib oldi. Kipriklari pipirab, jag'ini kavshanayotgandek qimirlatardi. Qo'llari tizzalari ustidan pastga osilib turardi.

– Tanamiz bizga berilgan omonat, – deya so'zida davom etdi u. – Biroq qurg'ur yuragimiz unga aziyat beradi. Keyin xiyonatga o'tamiz. Ozor ko'chalarida sarson-sargardon kezamiz.

Miyamda momaqaldiroq gumburlab ketdi. Ko'z oldim daf'atan xiralashdi. Ruhimni ham sezmayotgandim. Mana endi, o'z-o'zimiz tepadan tomosha qila boshladim. Bir hovuch tuproq boshim uzra sochib yuborildi. Atigi, shumi ahvolim, dedim shivirlab. Yonimda o'tirgan hamrohim tizzamdan turtganida xayolim Bashirdagi baland tog'laridan qaytib kelgandek bo'ldi. Unga yelka osha qarar ekanman, yuzimda injuni his qildim.

– Ota-bobolarimiz kindik qoni to'kilgan zamin, onadek qadrli bo'ladi, deganida qanchalar haq gapni aytgan, a? – Ro'ziboy bobo o'zi bilan o'zi gaplashayotgandek edi, go'yo. Keyin bizga birma-bir ko'z tashlab oldi. Tomirlari ko'karib, eti osilib qolgan, uzun barmoqlari bilan to'g'rini – ostonani imlab ko'rsatdi. – Vatanim shu yerdan boshlanadi. Demak, uning uchun men qadrli, qalbim uchun esa u.

Ko'chadan bolalarning shovqini eshitildi. Hammamiz ovoz kelgan tomonga o'girilib qaradik. Keyin ko'zim Ro'ziboy boboga tushdi. Uning lablari yoyilib ketgandi. Daf'atan yuzida mamnunlik qalqib chiqdi. Boyagina osilib turgan qoshlar, qalin ajinlar endi yoyilib ketgandi. Egilgan gavda rostlandi.

– Nevaram bolalari bilan keldi, – dedi u kulimsirab. – Jonim qurbon bo'lsin, ularga.

Ko'zlari munchoq besh yoshdagi qizaloq chopqilab keldi-da, boboning

tizzalariga minib oldi. Keyin jajji qo'lchalar paxtadek soqollarni avaylab o'ynashga tushdi.

– Agar daraxt ildizi chuqur ketgan bo'lsa, har qanday dovulga bardosh bera oladi. Bular mening mevalarim. Ularga gard yuqishini istamayman. Jonim tanamda ekan, ildizim chuqurlashaveradi...

Armon ham insonni ado qiladi. Chunki shu haqda o'ylaysiz, kuyinasiz. Imkoniyatingiz yetmasligini bilib, battar yuragingiz siqiladi. Quyosh allaqachon dovon ortiga o'tib bo'lgan edi. Ro'ziboy bobo boshidagi do'ppini titrab turgan qo'llari bilan shoshmay oldi-da, ko'zlarini chap qo'li bilan ishqalab qo'yib, gapira boshladi.

– Bir narsa aqlimni shoshirib qo'ydi, – dedi u. – Biz bu zamin uchun zarra emasmidik?

Uning savoliga javob bermay, tosh qotib turaverdik. Lekin zarra ekanimizni yodimizga solganidan oyog'im tomir tortishib qoldi. Borliq oldida hech kimman, deb o'yladim ichimda. So'ng boboning xira ovozi o'zimga keldim.

– Bolalikdan o'ylab yurardim, samolyotda uchish bizga nasib etadimi? Keyin bu haqda o'ylamay ham qo'ydim. Sababi qontomirlar toraydi, soqol oqarib, tizza titraydigan bo'lib qoldi. Bularning barchasi qarilik alomatlar edi. Uni tan oldik. Keyin fursat bo'lganida bir og'iz yoshlikdagi o'ylarni ochiqladik. Ammo ishonch yo'q edi. Lekin buni qarangki, so'zim yerda qolmadi. Prezidentimga rahmat aytaman! O'sha temir qanotli "qush"da uchdim. Bulutlarni ohista kezdim. Tepadan Vatanimni boricha ko'rdim. Boisi bu davlatda armonlar ushaladi. Faqat qattiq istak kerak, xolos.

Akbar Kamolov hikoyasini shu yerga yetganda to'xtatdi. Bilmadim, nimaga unday qildi? Uning ruhida nimadir o'zgarish sodir bo'lganini sezdim. Biroq bu haqda o'ziga indamadim. To'g'ri aytasiz. Inson qachondir bilishi kerak bo'lgan haqiqatlarni vaqtliroq anglab yetgani ham qanday yaxshi. Ammo yana avvalgi yo'lga tushmasa bo'lgani. Akbardan esa ko'nglim to'q.

Aka, sizni ham ildizingiz chuqurlashganmi? Mendan so'rasangiz, bu savolga javob berolmayman. Chunki daraxtimiz ancha oldin o'tin bo'ldi. Kuli zaminga, borliqqa sochib yuborilgan. Biroq mag'ribi mashriqqa dovur tarqalgan mevalari bor. Faqat ular qachon bir joyga jam bo'ladi, shuni bilmayman. Ha, Ro'ziboy boboning mevalaridek.

Aytgancha, har kun ishga ketar ekanman, ostonada uzoq turib qoladigan bo'ldim. Vatanim hidini, uning taftini his qilaman. Bir kuni tili chiqqan bolam o'ynoqlab keladi-da:

– Nima bo'ldi, dada? – dedi oyog'imga osilib. Unga tepadan qaradim. Juda mayda va himoyaga muhtoj. Ko'zlari chaqnaib turibdi. Keyin boshini ohistalik bilan siladim:

– Vatan, – dedim pichirlab. – Vatan... Ildiz.

Bu har kuni takrorlanadi. Hatto vaqt o'tib odatga aylandi. Balki bu gurungimizdan keyin siz ham mendek yo'l tutarsiz?

Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"

VATANPARVAR



**MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI**

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5945
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 269 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya